

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

***5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi***

**YUSUPOVA GULYOR GULYAMOVNANING
«TO‘RTKO‘L-ELLIKQAL’A SHEVASIDA O‘Z VA O‘ZLASHGAN
LEKSIK QATLAM»**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof Yu.M. Ibragimov

Nukus-2014

MAVZU: «TO‘RTKO‘L-ELLIKQAL’A SHEVASIDA O‘Z VA O‘ZLASHGAN LEKSIK QATLAM»

REJA:

KIRISH

I BOB

Umumturkiy leksik qatlamga oid LMG

1.1 Qoraqalpoq tili bilan mushtarak LSG.

1.2 Qozoq tili bilan mushtarak LSG

1.3 Turkman tili bilan mushtarak LSG

2.4 Rus tilidan o‘zlashtirilgan LSG

1.5 To‘rtko‘l-Ellikqal’a shevasida hosil bo‘lgan LSG

IIBOB

Chet tillardan o‘zlashtirilgan LMG

2.1 Arab tilidan o‘zlashgan LSG

2.2 Fors-tojik tilidan o‘zlashgan LSG

III BOB

3.1 Turarjoy qismlarini ifodalovchi LSG

3.2 Binokorlik leksikasida narsa-qurol nomlarini ifodalovchi LSG

3.3 Kasb egalari, mehnat faoliyat bilan bog‘liq LSG

3.4 Binokorlik leksikasidagi o‘zlashgan LMG

3.4.1 Binokorlik leksikasidagi fors-tojikcha LSG

3.4.2 Binokorlikdagi arabcha o‘zlashma LSG

3.4.3 Binokorlikka oid rus tili orqali o‘zlashgan LSG

U M U M I Y X U L O S A L A R

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Malakaviy bitiruv ishi O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2014 yil «___»_____ yig'ilishining ___ -sonli bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilinadi

Fakultet dekani: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

Kafedra mudiri: f.f.n. M. Xudayarova

Ilmiy rahbar: f.f.d.prof Yu.M.Ibragimov

Yusupova Gulyor Gulyamovnaning «**TO'RTKO'L-ELLIKQAL'A SHEVASIDA O'Z VA O'ZLASHGAN LEKSIK QATLAM**» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo'yilsin.

DAK kotibi: _____

«___»_____ 2014 yil

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi shundaki, dialektal xususiyatlar shevalarning o‘zaro ta’siri, aloqasi, adabiy tilning matbuot va ma’rifiy-madaniy muassasalarning ta’siri natijasida yildan-yilga kamayib, shevalar orasidagi farqlar tekislanib, asta-sekin adabiy tilga yaqinlashish, singib borish jarayoni tezlashmoqda. Bu hol dialektologik materiallarning asta-sekin tugala borishiga olib kelmoqdaki, bu “xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish”¹ - boyitish manbalaridan biri va, eng muhimi, o‘zbek jonli tili materiallarini, ayniqsa, adabiy tilda uchramaydigin so‘zlarni yig‘ib, saqlab qolish zaruriyati, ularni ham adabiy til mulkiga aylantirilishi bu kun uchun dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Davr talabi bilan bugungi kunda o‘zbek tili To‘rtko‘l-Ellikqal’a shevalarining eng muhim leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy aspektda tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. Ishda To‘rtko‘l-Ellikqal’a hududiga joylashgan o‘zbek shevalari ham tekshirish ob’ekti, ham predmeti sanaladi.

Tadqiqot usuli va uslublari. Ishda asosiy e’tibor *«To‘rtko‘l-Ellikqal’a shevasida o‘z va o‘zlashgan leksik qatlam»* mavzusini tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil etishga qaratiladi.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasi. O‘zbek shevashunosligida shevalar tizimini o‘rganish bo‘yicha muayyan ishlar qilingan. Ayniqsa, shevalarining o‘ziga xos tomonlarini aniqlash ishiga, shevalarning morfolgik, fonetik, leksik xususiyatlarini o‘rganish sohasiga E.O‘razov, A.Ishaev, M.Bo‘ranov, Yu.M.Ibragimov va Z.Yu.Ibragimova va boshqalarning munosib hissalar bor. Shunga qaramasdan, o‘zbek shevalarining leksik-semantik xususiyatlari, o‘z va o‘zlashgan leksik qatlam kabi muammolar o‘z tadqiqini kutmoqda. O‘zbek shevalarini mukammal o‘rganmay turib, “O‘zbek shevalari dialektologik atlas” va “O‘zbek shevalar lug‘ati”ni yoritishda foydalanish mumkin.

¹ Karimov I.A.O‘zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1998.B:19.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi:

-o'zbek shevalarining leksik-semantik xususiyatlari birinchi bor qiyosiy usulda tadqiq qilindi;

- To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidan yig'ilgan materiallar o'z va o'zlashgan leksik qatlamga ajratib tahlil qilindi.

-shevalar leksikasini talqin etishning usullari yuzasidan ba'zi mulohazalar bildirildi.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqotda shevalar leksikasining mavzu guruhlarini yuzasidan bildirilgan nazariy xulosalardan o'zbek tili shevashunosligi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. O'zbek shevalarining lug'atini va o'zbek tili dialektologik atlasini yaratishda, magistrlik dissertatsiyalari yozishda qo'l keladi.

Qo'llanilish sohasi: Mazkur tadqiqot materiallari va natijalari o'zbek shevashunosligi fani, o'zbek tili tarixi, tarix, etnografiyasi fanlarini uchun umumo'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlari, Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar yaratish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Ishning sinovdan o'tganlik darajasi. Ajiniyoz nomidagi NDPI ning "O'zbek tilshunosligi" kafedrasining ilmiy-metodik kengashida muhokama qilinib himoyaga tavsiya etildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Transkripsiya va shartli belgilar

Transkripsiya

ə – til oldi, lablanmagan, yumshoq, keng unli tovush

a – til orqa, lablanmagan, qattiq, keng unli tovush

i – til oldi, lablanmagan, yumshoq, tor unli tovush.

i' - til orqa, lablanmagan, qattiq, tor unli tovush

u - til orqa, lablanmagan, qattiq, tor unli tovush.

u' – til oldi, lablangan, yumshoq, tor unli tovush.

o – til orqa, lablangan, qattiq, o'rta-kebg unli.

o' –til oldi, , lablangan, yumshoq, o'rta- keng unli.

e(e) – old qator, lablanmagan, yumshoq, o'rta- keng unli.

h-qorishiq bo'lmagan sof (ng) undosh: tong. b, v, g, g', d, z, y, k, q, l, m, n, p, r, s, t, x, h, ch, sh harflari o'zbek adabiy tilidagi o'sha undoshlardan farq qiladi.

Shartli belgilar

... –ko'p nuqta. Misol yoki matn to'liq olinmay qisqartirilganda qo'yiladi.

: - ikki nuqta unli tovushdan keyin qo'yilganda o'sha unlining birmuncha cho'ziq aytilishini bildiradi, shuningdek, so'zlarning parallel ishlatilishini ifodalaydi.

:: - o'ta cho'ziqlikni bildiradi

Shartli qisqartmalar.

Qishlog ovullar qisqartmasi:

Oqb.-Oqboshli qishlog'i.

Shxon – Sho'raxon qishlog'i.

QQb -Qoraxonboy qishlog'i.

KQ -Ko'naqal'a qishlog'i.

YAy – Yangiyo'l qishlog'i.

Jiyda – Jiydalik qishlog'i.

Xar – Xarrat qishlog'i.; 7.g –etti gujum qishlog'i. ovuli:

Iydir – Iydiriq qishlog'i

qazaq. - Qazaq ovul

2.Tillar qisqartmasi.

ad-orf.Ma'lum bir so'zning o'zbek adabiy tildagi imloviy shakli

O'zb.ad o'sha so'zning adabiy tildagi varianti.

Arab, fors-tojik, rus – biror so'zning etimologik jihatdan o'sha tillardan o'zlashganligini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

qqalp.-qoraqalpoq tili.

turkm.-terkman tili/

3. Ba'zi adabiyotlar, lug'atlar qisqartmasi

DLT – M.Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» 1960-1963.

Indeks – M.Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk»

Indeks – Lug'at. 1967.

NAL – Navoiy asarlari lug'ati 1972.

NATIL – Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1984.

KKRSl. – Karakalpaksko-russkiy slovar M., 1958.

OJSRYA – s.i.Ojegov slovar russkogo yazo'ka M., 1988

RO'zL – Ruscha-o'zbekcha lug'at I-II T., 1983-1984.

TRS – Turkmensko-russkiy slovar M., 1968

O'zTIL – O'zbek tilining izohli lug'ati I-II, M., 1981.

O'zTA –«O'zbek tili va adabiyoti» jurnali

YU.t. – Primqul Qodirovning «Yulduzli tunlar», saylanmasi. III tom.

UMUM TURKIY LEKSIK QATLAMGA OID LMG

*Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib
bo'lmaydi - sharqona qarash, hayot falsafasi*

I.A.Karimov

Sheva vakillari haqida tarixiy-etnografik ma'lumot

Ma'lumki, o'zbek xalqi va uning tili uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa tizimga mansub tillar bilan arab, fors-tojik, mo'g'ul, xitoy, rus va evropa tillari bilan yaqin munosabatda bo'lib keldi. Ana shu tufayli ham o'zbek tili leksikasida arab, fors-tojik, rus va u orqali evropa tillarining unsurlari ko'plab uchraydi. O'zbek tili leksikasining boyishida chet tillarning ta'siri kuchlidir.

Rus tili hozirgi kunda eng boy va ilg'or tillar qatoridan o'rin oldi. Demak, o'zbek tili Mustaqil Davlatlar Hamkorligi tarkibidagi boshqa milliy tillar qatorida rivojlangan tillardan biriga aylandi.

O'zbek shevalari dialektologiya fani uchun katta ilmiy ahamiyatga egadir. Lekin Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari hozirgacha, to'la ravishda, yaxlit tarizda, maxsus dialektologik tekshirish ob'ekti sifatida kam o'rganilgan. Holbuki, mazkur shevalarni tasnif va tadqiq qilish o'zbek dialektologiyasi uchun juda muhim qiyosiy materiallar berishi, shuningdek, o'zbek tili o'g'uz va qipchoq lahjasini to'la tahlil etish va o'zbek tilining dialektologik atlasini yaratish uchun keng imkoniyat yaratib berishi tabiiy holdir. Bu xususda keyingi yillarda o'zbek tilshunoslari-shevashunoslari A. Ishaev, E.O'rozov, M.Bo'ronov, Yu.M.Ibrohimov va Z.Yu.Ibragimovalar Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarini fonetik, leksik, leksikografik, morfologik hamda lingvogeografik, areal lingvistik aspektda o'rganish sohasida anchagina ish qildilar. Nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografik tadqiqotlar yaratildi. Lekin shu kunga qadar ijtimoiy hayotning turli sohalariga, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'zbek shevalarida o'z va o'zlashgan

leksik qatlamlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shu ma'noda, mazkur hududdagi o'zbek shevalarida o'z va o'zlashgan leksik qatlamni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ham Qoraqalpog'iston mintaqasidagi To'rtko'l-Ellikqal'a tumanlari o'zbek shevalarida o'z va o'zlashgan leksik qatlamni «Bitiruv malakaviy ishimiz»ga mavzu sifatida tanladik.

O'zbek tili To'rtko'l-Ellikqal'a o'zbek shevalaridan o'z va o'zlashgan leksik qatlamga oid ma'lumotlar birinchi navbatda qadimgi turkiy tillarga oid tarixiy yodgorliklar, leksikografik manbalar, o'zbek adabiy tilimiz va qorindosh, noqorindosh tillarning materiallari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning faktik ma'lumotlari shaxsiy kuzatishimiz, shevaning kekxa va o'rta avlodiga mansub vakillari nutqidan yozib olindi. O'zbek tili, qorindosh turkiy va noqorindosh tillar lug'atlaridan ham samarali foydalandik.

Adabiy tilimiz bilan dialekt va shevalar doimo to'xtovsiz munosabatda bo'ladi. Bu munosabat darajasi o'sha dialekt va adabiy til egalarining ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog'lanadi. Adabiy til dialekt va shevalarga ijobiy ta'sir etib, ularning xususiyatlarini o'ziga yaqinlashtirib borar ekan, ularning o'zni bilan jonli tildan oziqlanib, shevadagi so'z va iboralar hisobiga boyib boradi.

Biz bu ishimizda Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l, Ellikqal'a tumaniga qarashli Sho'raon, Bog'yop, Oqboshli, Sariqqamish, Miskin, Sarabiy, Guldursin, Qilchinq, Amirobod, Saxtiyon va boshqa qishloqlarida yashovchi o'zbeklarning so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan o'z va o'zlashgan leksik qatlamni tadqiq etishni asosiy maqsad qilib olganmiz.

Tekshirish ishimizning asosiy ob'ekti bo'lgan To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlari qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholining tarixi, etnografiyasi, urf-odatlar, asosiy kasb-kori haqida ma'lumot beriladi. Masalan, Sarabiy qishlog'ining tarixiga kelganda shuni aytish joizki, bu qishloq vakillarining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Aytishlariga qaraganda, bu erda taxminan 200-250 yil avval bir sariq rangdagi kishi beglik qilgan. Yana bir ma'lumotga qaraganda sara biy, ya'ni tartibli, intizomli, saralangan degan ma'no bilan bog'lab tushuntiradilar

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi vakillarining asosiy aholisi o'zbeklardan tarkib topgan. Ular o'zbeklarning xo'jajabr, o'n olti, kɵkkɵz, sarang kabi urug'larga mansub.² Oqboqli nomli Dehqon fermer xo'jaligida tabaqchi, maqsim, tuyachi, do'sanboy, tojik kabi urug' vakillari yashab keladi. Shuningdek, Yonboqliqal'a nomli Dehqon fermer xo'jaligi hududida o'zbek va qozoq xalqlari, Miskin, Sariqqamish, Obojon Durdiev, Turkmanko'l, Qozoqlik nomli Dehqon fermer xo'jaliklari territoriyasida turkman, qoraqalpoq va o'zbeklar, Qoraxonboy, Sho'raxon nomidagi Dehqon fermer xo'jaligi hududida o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlari vakillari aralash yashaydilar. Biz To'rtko'l, Ellikkal'a tumanlarida joylashgan qishloqlarning hammasini birlashtirib, «To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi» deb nomlashni ma'qul topdik. Chunki To'rtko'l, Ellikkal'a tumanlarida bir-biridan qisman farq qiladigan ikkita shevacha mavjud, ya'ni Sho'raxon va Sarabiy kabi.

Sho'raxon shevachasi To'rtko'l tumanining janubiy - sharqiy qismlarini qamrab oladi. U g'arbiy- shimolidan Ellikqal'a tumani bilan, Qoraxonboy Dehqon fermer xo'jaligiga qarashli qishloqlar bilan chegaradosh. Janubdan Xorazm viloyati bilan chegaradosh. O'rganilayotgan sheva hududida maktab, bolalar bog'chasi, klub, kichik stadion, sog'liqni saqlash muassalari va madaniy-maishiy muassasalar bor.

To'rtko'l, Ellikkal'a tumanlarida joylashgan qishloqlar aholisi, asosan, paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik, pillachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan.

Istiqlol sharafati tufayli To'rtko'l, Ellikkal'a tumanlarida joylashgan qishloqlarning aholisi har yili dehqonchilikning barcha sohalari bo'yicha katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib kelmoqdalar. Mazkur sheva vakillarining yana bir muhim xususiyatlari shundaki, aholi uylarida zotdor teri beruvchi qo'ylarni saqlab, undan mo'may daromad oladilar, qorako'l terisi bilan bog'liq leksik qatlamga ham boydir.

² S.Qurbanov tilidan yozib olindi.

UMUMTURKIY LEKSIK QATLAMGA OID LMG

O'zbek tili To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi aholisining nutqi o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga mansubdir. Shu boisdan mazkur shevada ham o'zbek adabiy tilidagi singari umumturkiy so'zlar salmoqli o'rin tutadi. Fikrimizni shevadan to'plagan materiallar to'la tasdiqlaydi.

Shuningdek, o'zbek tili To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida ishlatiladigan so'zlarning deyarlik ko'p qismi qarindosh tillar, ya'ni qoraqalpoq, qozoq va turkman tillari bilan mushtarak so'zlardir.

Xuddi shuningdek, shevadan to'plangan so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan adabiy tilda ham faol qo'llaniladi. Bu esa, o'zbek tilining To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi deb nomlash va o'rganishimiz uchun asosdir.

Shuni ta'kidlash joizki, qardosh turkiy tillar bilan mushtarak so'zlar har bir tilning fonetik, grammatik qoidalariga ko'ra har xil lisoniy o'zgarishlarga duch keladi. Buni quyidagi qiyosiy jadvaldan ko'rish mumkin:

Sheva da	turkman	Qoraqal poq	qozoq	O'zb.ad.orf.
göz	göz	köz	köz	ko'z
yer	ier	jer	jer	er
qash	kash	qas	qas	Qosh
ul	ogul	ul	ul	o'g'il
qulaq	gulak	qulaq	qulaq	Quloq
yulduz	уылдыз	julduz	julduz	Yulduz
dayы	da:yi	dayы	dayы	tog'a
duye	doe	tyye	tuye	Tuya
depə	depe	təbe	təbe	Tepa
bag'ыр	bag'r	baуыр	baуыр	Jigar
nəchun	nemuchын	nege	nege	Nega

nichik	nexili	qalay	qalay	Qanday
dagʻ	dagʻ	tau	tau	togʻ
iyne	iyne	iyne	iyne	Igna
qʻzʻl	gʻyzil	qʻzyyl	qʻzyyl	Qizil
bala	oglan	bala	bala	Bola
yaxshy	govy	jaqsy	jaqsy	Yaxshi
yʻon uch	on uch	won ush	on ush	oʻn uch
mʻn	men	men	men	Men
sʻn	sen	sen	sen	Sen
hʻmmʻ	xemme	barligʻi	barlyq	Barcha
yazmaq	yazmak	jazyu	jazu	Yozmoq
gʻylmʻk	gulmoq	kʻyliʻ	kʻylʻv	Kulmoq
biʻraq	ʻemma	byraq	byraq	Biroq

1.1. QORAQALPOQ TILI BILAN MUSHTARAK LSG

Toʻrtkoʻl-Ellikqalʼa shevasida qoraqalpoq tilida ishlatiladigan soʻzlar anchaginani tashkil etadi. Bunday boʻlishi tabiiy hol. Chunki sheva vakillari oʻz kundalik hayotida qoraqalpoqlar bilan birga ishlashadilar. Qoraqalpoq tilida radio eshittirishlarini tinglab, telekoʻrsatuvlarni koʻrib boradi, vaqtli matbuotdan keng foydalanadi, ayrim qishloqlarda aralash va yonma-yon yashab keladilar. Qishloq fuqoralar kengashi hisob-kitob maʼlumotlariga koʻra oʻn ikki mingdan koʻproq qoraqalpoqlar yashaydi. Maktablarda oʻzbek va qoraqalpoq bolalari birga oʻqiydilar. Qishloq xoʻjaligining barcha javhalarida birga ishlaydilar. Bu holat sheva vakillarining tillariga taʼsir koʻrsatishi aniq.³

Sheva bilan qoraqalpoq tilini qiyoslab koʻrsatamiz:

Shevada	qoraqalpoq tilida	Adab. orf.
yalpy yinalish	jalpy jʻyilis	umumiy majlis

³ Yu. Oʻrozov. Janubiy Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari. Toshkent.1978. 68-b.

Makama	məkəma	Idor
Tapshirma	tapsyrma	Topshiriq
Ogynlamaq	ogynlaw	Bajarmoq
depə	təbe	Tepa
Javap	juap	Javob
Azap	azap	Azob
Gəbik	kəbik	ko‘pik
Bytaq	putaq	Butoq
Bytyn	putun	Butun

1. *oya savatan ыsprapka apker **tapshyryñ.***
2. ***Yalpi’ yi’ynalisha** gechikmiyin gəl.*
3. *Makamani **dəkshiruvə** kamiysa gəlipti, xavarp’n’ yoqma həli səniñ.*
4. *Bizaring brigat bugin paxta pylanyn **orynladi’.***
5. ***Tapshi’rmani’ oryllama:anlar ornynan** dursi’n.*
6. *Ishtan **javap** apgəl, paqsa salamis*
7. *Munday yaxshi’kunə nə azap minan yettik*
8. *Yuzimiñ bi’tag‘i’n vaqi’ında amasañ, hasi’l bərmiydi dimam*
9. *Derəñdə duran nəarsəni gərmiysən.*
10. *Qutyrān iyting ag‘zi’nan gəbik sachi’p duradi’.*
11. *Digirmanā dushan butin chi’qmi’:ydi’.*
12. *Har avuldi’n’ dəstiri har xiyli’ voladi’.*
13. *Bi’yi’li’ yi’li’ yavun-sachyn di’m kəp voldi’.*

1.2. QOZOQ TILI BILAN MUSHTARAK LSG

To‘rtko‘l-Ellikqal’a shevasida yashovchi qozoqlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shu sababdan sheva vakillari nutqida qozoq tilida uchraydigan so‘zlar anchagina. Albatta, bu so‘zlar sheva vakillarining fonetik qonuniyatiga bo‘ysundirilgan holda ishlatiladi. Shevadan qozoq tiliga xos so‘zlarni o‘zbek adabiy tili va qozoq tili sheva materiallari bilan qiyoslaganda ko‘zga yoqqol tashlanadi:

Shevada	qozoq tilida	O'zb. ad. orf.
azabi'n torti'	azabyн tartty	azobini tortdi
sandi'raqladi'	sандырақтады	vaysadi, so'zladi
ovzi' murinan galdi	аузы мурнынан келди	og'zi burnidan chiqdi
aqli'di'	андысып алди	Poyladi
aldi'	алды	Tegdi
kobik aui'z	көобик ауыз	vaysqi
iyek qeqti'	iek қақты	Salomlashdi
mi'nq etmadi	мынқ etpedi	churq etmadi
hədəvyr	едəуыр	ancha, ko'p, har holda (ancha). ko'p
xorli'q minan	қорлықпен	azob chekib

Yuqorida keltirilgan qozoqcha so'zlarni o'zbek sheva vakillari nutqidan to'plangan misollar bilan berishni ma'qul ko'rdik:

1. Өldiң arasynda yaxshy ishlap abroy topty.:
2. Aytuva ag'zy bolan minan әliән **echtama** gәmiydi.
3. Bash iyip kegan әkән, hәмә bop **etән** narsalari gechirdim.
4. Sho balalari' kәlә qilanchәli ag'zi'-burni'ңan qaraqa'ң gәlәdi, nә-nә azapları' gj'rmәdim: dartmadi'm:chәkmәdim diysәң'.
5. Mug'aylim mi'nq әtmәdi.
6. Bugin ken'sәdә bir yi'li'ың yiyнаlyshi voladi' әkән.
7. **Ag'uz birchilik** minән ishlәsәңlә ishiң gөzin vilip;
8. I:shi оңi'nan gәldi.
9. Erkәvayi'ң turqi' di'm savuq(yuzi sovuq)
10. Mi'nadan qalag'a **tötälәp**(to'g'lap) barsa boladi'.

1.3. TURKMAN TILI BILAN MUSHTARAK LSG

To'rtko'l-Ellikqal'a hududida yashovchi o'zbeklar nutqida turkman tili bilan mushtarak so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki To'rtko'l-Ellikqal'a

tumanlarining Miskin, Turkmanko‘l, Obojon Durdiev, Sariqqamish qishloqlarida turkmanlar yashaydi. Ular bilan o‘zbeklar yonma-yon, ayrim qishloqlarda esa aralash yashab keladilar. Shu ma’lumotni ta’kidlash o‘rinli. Qoraqalpog‘istondagi qoraqalpoq, qozoq va turkman shevalari ham anchagina o‘rganilgan⁴. Ushbu ishlarda o‘zbek shevalarining qardosh turkiy tillarga ta’siri masalasi yoritiladi-yu, lekin o‘zbek shevalariga o‘z navbatida yuqorida qayd qilingan tillarning tasiri masalasiga ahamiyat berilmaydi.

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarini tadqiq etgan A.Ishaev, E.O‘rozov, M.Bo‘ronov va Yu.M.Ibragimov, Z. Yu.Ibragimovlar o‘z tadqiqotlarida mazkur hududdagi o‘zbek shevalariga qardosh tillarning ta’siri yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar bildirganlar⁵.

Ayniqsa Z.Yu.Ibragimovning “Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari qishloq xo‘jaligi leksikasining lingvogeografik tadqiqi” nomli ishida qardosh turkiy tillarning o‘zaro munosabati masalasiga ancha keng yondoshgan⁶.

Bu bildirilgan fikr-mulohazalar biz tadqiq etayotgan shevachasi vakillari nutqiga ham tegishlidir.

Turkman tilidan o‘zlashgan leksik birliklar bevosita o‘zbek tilining fonetik va grammatik qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan holda ishlatiladi. Buni quyidagi misollar to‘la tasdiqlaydi:

shevada	turkman tilida	o‘zb. ad.orf.
ul	og‘lan	Bola
taza	teza	Sof
bayraq	bayraq	Mukofat
g‘och yigit	g‘och yigit	mard yigit
gəchchi	gechi	Echki
gəzzik	gezek	Navbat
qut	qut	Nuqul

⁴ Arazkuliev. Garakalpakistan ASSRnin Dortgul rayonindaqi tyrkman gepleshikleri. Ashgabat. 1961. 189-190-b. Dospanov O. Qoraqalpoq tilining qubla dialekti.-Nəkis:Bilim,1978.

⁵ O‘sha avtor. kərsatilgan manba. 5-17 b.

⁶ Ibragimova Z.Yu. Ko‘rsatilgan ish.

yadadim	yadadim	Chardhadim
mi'dam	mi:dam	hamiia, doimo

Yuqorida keltirilgan soʻzlarni misollar ichida berishni maʼqul koʻrdik:

1. Paxtagʻa har von kyndə **bayraq** bərip dur.
2. Paqsagʻa lay ataman dep **qut yadadiʻm** charchadim.
3. **Gʻoch yigit** degan vədəsində durar voʻlar.
4. **Gəchchi** baqan qoyiʻn baqannan qiʻyiʻn, avziʻnnan qaraqaniʻn gələdi.

1.4. TOʻRTKOʻL-ELLIKQALʼA SHEVASIDA HOSIL BOʻLGAN LSG

Har bir shevada uchragani kabi Toʻrtkoʻl-Ellikqalʼa shevasi vakillari nutqida ham sheva doirasida uchraydigan soʻzlar mavjud. Bunday soʻzlar va atamalar shu hududdagi moddiy hayot sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy turmushi bilan bogʻliq yuzaga kelgan.

Masalan:

tambi-eshikni ichdan berkitib turadigan yogʻoch.

chaybash -aqli kam, ZIL mashinasi.

chaymiyə- unutchiq, xotirasi zaif odam.

pəkki- boʻsh, xom.

nan ushatmaq:nan siʻndiʻrmaq - qiziq boshini bagʻlamək qoʻymoq, sovchilikka bormoq.

beti bulk yetmak- uyalmaslik

qarəli -olxoʻri.

chiyə - olcha

buvak-chaqoloq.

uəjək - buzoq

kar - ish

iskirt- zixna, xasis.

pətləqam -ayyor, mugʻombir vs b.

Umumturkiy leksik qatlamni tashkil etgan soʻzlarning baʼzilari oʻzbek adabiy tilidan ham maʼno, ham shakl nuqtai nazardan farq qilishi mumkin. Ayrim soʻz va terminlar esa Toʻrtkoʻl-Ellikqalʼa shevasidagina keng ishlatiladi.

Sheva vakillarining uzoq vaqtlardan beri turkiy urugʻ, qabila, xalq vakillari bilan ijtimoiy munosabatda boʻlib kelganliklari hamda maʼlum ishlab chiqarish tarmoqlarining oʻsish darajasi, ularning oʻziga xos sharoitlari tufayli leksik ayirmalarning yuzaga kelishida muhim rol oʻynaydi.

II BOB

CHET TILLARDAN O'ZLASHTIRILGAN LMG

O'zlashtirilgan so'zlar To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida salmoqli o'rinni egallaydi. Til taraqqiyotining hozirgi holati o'zlashgan qatlamning, ayniqsa, rus va internatsional so'zlar hisobiga boyishini ko'rsatadi. Keyingi paytlarda o'zbek tili shevalari lug'at tarkibining boyishi (boshqa til va shevalarda bo'lgani kabi) so'z o'zlashtirish muhim o'rin egallaydi. Chunki, yangi so'z yasashga nisbatan so'z o'zlashtirish son va progressivdir.

So'z o'zlashtirish bir tildan ikkinchi tilga so'z qabul qilish yo'li bilan sodir bo'ladi. Bunday so'zlar bir tomondan ma'lum tilning so'zlashuv tilidan olinsa, ikkinchi tomondan bevosita shu tilning o'zidan to'g'ridan - to'g'ri o'zlashtiriladi.

O'zlashtirilgan leksik qatlamga nisbatan adabiy til bilan shevalarimiz o'rtasidagi farqlardan ayrimlari shundaki, «adabiy tilimizga rus tilidan kirib kelgan so'zlar, ko'pincha siyosiy, texnikaviy, badiiy, ilmiy asarlarni tarjima qilish orqali o'zlashtiriladi. Rus tilidan adabiy tilimizga qabul etilgan so'zlar intsenirovka qilinadi, shevada esa bunday holat sodir bo'lmaydi»⁷.

So'zlashuvdan asosan ijtimoiy hayotni aks ettiradigan (uy-ro'zg'or, etnografik terminlar) so'zlar olinadi.

Boshqa tillardan olinadigan so'zlar, fan texnika, siyosat, kabilarga oid bo'ladi. Har qanday adabiy til hozirgi sharoitda jonli til leksik boyliklari bilan chegaralanib qolmay, ilmiy texnikaga oid so'zlar va terminlarni ham qabul qiladi.

Har qanday adabiy til, jumladan, sheva boshqa tillardan so'z o'zlashirgandagina uning lug'at fondi boyishi mumkin. So'z o'zlashtirish bilan so'z qabul qilishni farqlay bilmoq kerak. So'z o'zlashtirish boshqa tillardan hayot uchun zarur bo'lgan so'zlarni adabiy til normalariga kiritish va adabiy til lug'at boyligini oshirish mumkin.

⁷ A.Ishaev. «Mang'it shevasida rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar». Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 3-kitob. Toshkent.1961. 364-bet.

Shevalarda o'zlashtirilgan so'zlarning miqdori har qaysi sohaning xususiyatiga qarab bo'linadi. Masalan: fan - texnikaga oid so'zlar shevada kam uchraydi. Jonli tildan o'zlashtirilgan so'zlarning barchasi adabiy til normalariga kiritilavermaydi, chunki bunday so'zlar ko'pchilik uchun umumiy bo'lmaydi. Masalan: *gumdan* (tojik), *obyski* (rus), adabiy orfografiyada yo'qotmoq, tekshirmoq.

O'zlashtirilgan so'zlarni o'zaro farqlashda so'zlarning fonetik stukturasi (ba'zan grammatik xususiyati ham) hisobga olinadi.

Shevalardagi **azan** (erta, tong, nomozni ovoz chiqarib o'qimoq), *bəhir* (foydalanmoq, rohatlanmoq), *zahmat* (azob, uqubat, siqilish), *bəttal* (qaysar, tentak, bekorchi, ishyoqmas, mug'ombir, ayyor), **xumor** (biror narsa yoki visolni qo'msamoq,, o'yin, ichkilikdan keyingi behollik), *kəpin* (kafan), **qi'yar** (bodring), kabi fors-tojik so'zlar **vermin:shil**, *patni's*, *samavar*, *lampi'chkə*, *pət:inkə* (vermishel, patnos, botinka, samovar, lampochka) kabi ruscha internatsional so'zlar etimologiyasidan fonetik o'zgarishlaridan, semantik siljishlaridan qat'iy nazar To'rtko'l-Ellikqal'a shevasiga tub so'zlar singari o'zlashib ketgan.

Chetdan o'zlashgan so'zlar ya'ni ruscha so'zlardan quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ular fonetik o'zgarishga uchrab, ko'pincha bir ma'noli so'zlardir. Ya'ni denotativ ma'noga ega. Masalan: *kartichka*, *kapista:kapuskə*, *pamadir*, *traqtыр*, *pulыq*, *ag'ranom*, *muxaynik*, *injral*, *zavut*, *pachadjir*, *perma*, *karadrina*, *siylos* va b.

Chetdan o'zlashgan leksik qatlam vaqt o'tishi bilan shevaning o'z so'ziga aylanib qoladi. Chunki tilning lug'at boyligi deganda, muayan bir tilning vakillari uchun tushinarli bo'lib qolgan so'zlar nazarda tutiladi. Shevalarga chetdan o'zlashgan so'zlarning hammasini o'zbek adabiy tilining boyligi deb bo'lmaydi, *sapidan*-tojik, *safadqak-oq gul*, *apchin*-tojik, *opchin*-xalat, *sochiq*⁸. Chetdan o'zlashtirilgan so'zlar barcha xalq tili yoki shevalarida bir xil bo'lavermaydi. Biror shahar yoki qishloqda xalq xo'jaligining qaysi bir sohasi tarmoq otgan bo'lsa, o'sha sohada chetdan o'zlashtirilgan so'zlar salmoqli o'rin tutadi.

⁸ Toshkent oblast o'zbek shevalari.-Toshkent:Fan.1967.92-b.

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasining lug'at tarkibining vujudga kelish tarixi, uning rivojlanishidagi o'ziga xos shart-sharoitlar bu so'zlarning fonetik tuzilishida hamda ularda ro'y bergan semantik siljish va stilistik bo'yoqdorlikning etimologiyasini o'rganishda, ularning shakligagina e'tibor berib qolmasdan, qadimda bu so'z qanday ma'noni anglatganiga, shakllanish tarixida qanday fonetik o'zgarishlarga duch kelganiga ham va nihoyat o'sha so'zga affiks qo'shilishi bilan qanday ma'no yoki shakl o'zgarishi sodir bo'lganini ham inobatga olish zarur. Masalan: *yarmarka* so'zi To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida *yarmonka*, *bulkanan* so'zi shevada pəŋkənan tarzida fonetik o'zgarishga uchragan,

O'zlashtirilgan so'zlar fonetik jihatdan o'zgargani bilan o'z ma'nolarini saqlab qolib, dastlabki shakli bilan hozirgi shakli o'rtasida qisman bog'liqlik saqlangan. Ammo so'zlarning etimologik jihatdan mos kelishi uchun ularning shaklan o'xshashligi yoki ma'nolarining o'xshash bo'lishi shart emas. Ba'zan so'zlar bir-biridan talaffuzi va leksik ma'nosiga ko'ra, yiroq bo'ladi, etimologiyasi bir-biriga mos keladi. Masalan, *axыр* -mollarning ovqat eydigan joyi, arab tilida *otxona* ma'nosini anglatadi. To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida ayrim so'zlarning ma'nolarining kelib chiqishi jihatdan o'zgarganligining guvohi bo'lamiz: *anayыр* -o'sol, tojik, *g'arib* qochuvchi, *azan*-erta tong, *luqma*-tojik *luqma* -ovqat turi, *azon* -tojik, *chorlash*, *duqtыр*-vrach. Shuningdek, qabul qiluvchi tilda o'sha tushunchani ifodalash uchun so'z yo'q tilda chetdan so'z olishga ehtiyoj tug'iladi.

Ma'lumki, keyingi yillarda, ayniqsa, Mustaqillik sharofati bilan Mustaqil Davlatlar Hamkorligi xalqlari tillaridan, shuningdek, evropa, Osiyo tillaridan ko'plab so'z va atamalar kirib shevalar leksikasini boyitdi. Bozor iqtisodiyoti savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim, ishlab chiqarishning barcha sohalariga, meditsinaga oid so'zlar hisobiga boyib bormoqda.

2.1.ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN LSG

Arabcha so'zlar turkiy tillarga arab istilosidan keyin kirib kela boshladi. 711-715 yillarda arablar tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi ularning uzoq

davom etgan hukmronligi va bu erda yashovchi xalqlarning necha asrlar maboynida islom dini ta'sirida bo'lishi mahalliy aholi tiliga va ayniqsa, uning leksikasiga arab tilining g'oyat ko'p miqdorda so'zlari singib ketishiga sabab bo'ldi.

Arablar o'zlari bosib olgan hududlarda mavjud bo'lgan yozuvini yo'q qilib, uning o'rniga arab alifbosi asosidagi yozuvni joriy qilganlar, yerli aholini arab tili va yozuvini o'rganishga majbur etganlar. Davlat, sud, ta'lim-tarbiya ishlari arab tilida olib borilar edi⁹.

O'rta Osiyo mintaqasida uzoq vaqt davomida maktab va madrasalarda o'qish, yozuv-chizuv ishlari arab tilida olib borilar edi. Bunga o'xshash hollar sheva leksikasida ham o'z ifodasini topgan.

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida ham Xorazm shevalaridagi kabi kelib chiqishi nuqtai nazardan arab tiliga tegishli bo'lgan so'zlar borki, ular asosan adabiy tilimizdagi arab leksik qatlamining o'ziginasidir¹⁰.

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lganidek, arab tilidan o'zashgan so'zlar ham borki, ular o'rganilayotgan shevaning lug'at tarkibiga kirib o'zlashib ketgan.

Shevadagi *kitap*-kitob, *sag'a:sasa:t*-soat, *ədəp*-odob, *savap*-savob, *tavup*-tabib, *g'arip*-g'arib kabi ko'pgina so'zlar shular jumlasidandir.

Mazkur shevada arab tilidan o'zlashgan so'zlarni quyidagi LSGga ajratib ko'rsatish mumkin:

2.1.1. Semantik doirasi o'zgargan yoki toraygan arabcha so'zlar

mysapыр - ad.orf. musovur-o'zga elning kishisi. Shevada bu so'z yovvosh, mo'min ma'nosiga ega, *tarap* ad.orf. taraf, tomon, *nal* ad. orf. nihol, taqa, *nali* kuzda əksəñ bə:ərda ɐnɪp getəvɪrədi.

⁹ O'zbek tili. Toshkent. 1983.

¹⁰ Abdullaev F.A.O' tilining Xorazm shevalari. 1 tom, 1961. 60-b.

2.1.2. Fonetik o'zgarishga uchragan arabiy so'zlar

nabiya-loviya:avqatqa nabiya sasaḥ dami chi'q'i'p mazali' voladi'.

Chi'ndji'r ad.orf. zanjir: bug'a saqlasaḥ *chi'ndji'r vilən* baylamasaḥ uzip getəverədi.

Nasi:əd. orf. nasihat:*nəsi:yət* amaqan adama sələmə, səziḥ zaya getədi.

Havuz-ad. orf. hovuz:havuzdi'ḥ dəvərəgindəki daraxla quvrap qapti', di'm qaravsi'z qap ketənəkan.

2.1.3. So'z turkumlariga oid arabiy so'zlar

Dəvlət-mol, mulk, boylik, omad ma'nolariga ega. ad. orf. hokimiyat, davlat:*dəvlətlinḥ* balasi' von bəshinda bash bolar, *biydəvlətḥ* balasi' yigirmə bəshinda yashvolar diyən. Yaḥabaydiḥ balası di'm bir uoqi'mi'shli' aqi'lli' bala chi'qdi'.

Xaradjat-ovqat uchun bozordan sotib olingan yegulik narsalar-ad. orf. xarj-sarflanadigan pul.

Mu':əllim:mug'əllim-ad. orf. muallim: mug'allim mənənən dapshi'rmani' soramadi'.

Xala-ad. orf. xolla, *ayvan*-ad. orf. ayvon, *xalva*-ad.orf. *xolva*, *sədəp*-ad. orf. tugma:*sadaping* du'ri hazi'r di'm kəp biri-birinan yaxshi'.

Taxi'ya-ad. orf. do'ppi: Tashkən *taxiya yaman qi':zlara* yarashadi'.

Arja--ad. orf. sandiq: qi:z yaq uyvətinə buri'nda kərpə sap *ardja*, aparato'g'i'nədi, *hazi'r* garintur degən chi'qip qap getti. Yuqorida qayd qilingan so'zlar o'rganilayotgan shevalarda fonetik o'zgarishlardan, semantik farqlardan qat'iy nazar hozirgi kunda o'z so'zidek ishlatiladi. Shuning uchun bu so'zlarga izoh berish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu jihatdan akad. Sh.Shoaduraxmonovning «Arabcha soʻzlar shevalarning lugʻat fondiga kirib juda mustahkam oʻrnashib ketgan va tamoman oʻzbek soʻzlaridek ishlatilaveradi», - degan fikri juda oʻrinlidir¹¹.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarni sheva vakillari nutqida turli sohalar boʻyicha uchratish mumkin:

2.1.4. Ilm-fan va madaniyatga oid arabiy soʻzlar

pan-fan, maktab-maktab, magʻrip-maorif, madaniy-madaniy. Bu soʻzlar asl turkiy soʻz bilan birikib yangi maʼnoli soʻz yasash uchun ishtirok etadi: *mādāniychertək* ad. orf. dala shiyponi: *mādāniychertəktə* dʏshtə adamla dəm aladiʼ uylərinə barmiʼyiʼn. Ədəp-odob.

2.1.5. Maktab hayotiga oid soʻzlar:

dəptər-daftar, *sabaq*-ad.orf. dars:sabaq tygəsə uʼygə dezrək qayt. Oʻzbek adabiy tilida saboq soʻzi namuna, ibrat maʼnolarida ishlatiladi. Ikkinchi maʼnosi oʻrganilayotgan shevada uchramaydi. *Majilis*-majlis, *kitap*-kitab, *qalam*-qalam.

2.1.6.3. Oziq-ovqatga oid arabiy soʻzlar:

patir-nonning bir turi boʻlib, xamirga yogʻ surtiladi va qat-qat boʻladi. Fargʻona vodiysidagi oʻzbek shevalarida *qatlama* deb yuritiladi. *Mırabba*-murobbo.

2.1.7.4. Kishilarning xarakteri va xususiyati bilan bogʻliq arabiy soʻzlar:

sımbat-ad. orf. savlat. Bu soʻz shevada juda kuchli fonetik oʻzgarishga duch kelgan. *Xumarpaz*-ad.orf qimorboz, *haz*-ad. orf.kayf. Bazargun daryagʻa bagʻyp diʼm hazəttik.

2.2. FORS-TOJIK TILIDAN O‘ZLASHGAN LSG

XI-XII asrlarda turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqning tashkil topish jarayoni, asosan, tugallandi va bu xalq keyinchalik o‘zbeklar deb atala boshladi.

Arab xalifaligi istilosigacha Farg‘ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm hamda Amudaryoning chap qirg‘og‘ida O‘rta Osiyoning ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotida turkiy tillarda so‘zlashuvchi aholi katta o‘rin tutadi.

Movaraunnahr feodal munosabatlarining paydo bo‘lish va rivojlanish paytiga kelib ikki xalq o‘zbek va tojik xalqi tashkil topdi.

Ming yil mobaynida O‘rta Osiyo shimoliy rayonlarining qadimgi so‘g‘dcha, xorazmcha, va boshqa tillarda so‘zlashuvchi aholining turklashish hamda O‘rta Osiyoning janubiy rayonlarida turkiy tillarda so‘zlashuvchi qabila va urug‘larning tojiklashishi davom etdi.

Shunday qilib, XI-XII asrlardan oldingi davr o‘zbeklarning xalq bo‘lib tashkil topish jarayoni kuchayib borishi bilan xarakterlanadi. Xuddi shu davrda tojik xalqi ham tashkil topdi.¹²

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining tojik xalqi bilan aloqasi qadimdan buyon asrlar bo‘yi davom etib keldi. Bunga bir necha tarixiy asoslar va sabablar bor.

O‘zbek va tojik tillarining bir-biriga ta‘sirini ikki katta davrga bo‘lish mumkin, deb ko‘rsatadi professor M.S.Andreev:

1. Arablar istilosigacha bo‘lgan qadimgi tojik tili yoki so‘g‘diy tiliga yaqin bo‘lgan til bilan munosabat davri.

2. Arablar istilosidan keyingi tojik va o‘zbek tillari munosabati davri¹³.

Ma‘lumki, bu ikki xalqning turmush sharoiti bir xil va ular umumiy teretoriyaga ega bo‘lganligi sababli hayotning turli sohalarida hamkorlik qilib keladilar. Bu hamkorlik tojik va o‘zbek xalqlarining tillarida fonetika, lug‘at tarkibi va grammatik qurilishida o‘z aksini topadi.

¹² O‘zbekiston SSR tarixi. Toshkent 1967. 1-tom

¹³ M.S.Andreev. O tadjikskom yazike nastoyashego vremeni. Materiali po istorii tadjikov i Tadjikistana. Stalinabad. 1945.str.58-59.

O'zbek va tojik tillarining uzoq davom etgan hamkorligi, ayniqsa, o'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirdi¹⁴.

Prof. A.K.Borovkovning ta'kidlashicha, tojik tilidan kirgan so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibidan mustahkamroqdir, chunki ular aniq narsa va predmetga tegishli so'zlar hisoblanadi¹⁵.

Ma'lumki, To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi vakillari nutqida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarni kundalik hayotda ishlatishining guvohi bo'ldik.

Fors-tojik tilidan kirgan so'zlar sheva vakillarining mehnat faoliyatining turli sohalariga tegishli so'z va atamalardir. Bular quyidagi mavzu guruhga ajratiladi:

2.3. RUS TILIDAN O'ZLASHTIRILGAN LSG

Adabiy til lug'at tarkibidagi so'z qilinayotgan sheva vakillari leksikasida ham rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan katta leksik qatlam mavjud bo'lib, u uzoq tarixga ega.

Rus tili jahondadagi eng boy, eng kuchli, eng nafis tillardan biri hisoblanadi. Rus tili xalqaro diplomatik munosabatlarda rasmiy tillardan biridir.

O'zbek milliy tilining tarixiy rivojlanishida ham rus tilining o'rni bor.

Rus tilining o'zbek tili va boshqa qardosh tillarini boyitishda buyuk roli singari xalq shevalarini boyitishda ham katta roli bor.

Adabiy tilimizda bo'lgani kabi o'zbek tili To'rtko'l-Ellikqal'a shevachasida hsm rus tilidan kirgan so'zlarni ham uch guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin.

Rus tilidan shevaga to'g'ridan-to'g'ri ayrim fonetik o'zgarishlar bilan kirgan so'zlar: u ch ə s k i- u ch a s t k a, s i y l o s- s i l o s, k u l t i v a t ы r- k u l t i v a t s i y a, z a v ы t- z a v o d, p a c p ы r t- p a c p o r t, r i v i z a- r e v i z i y a, p ə t i n k ə- b o t i n k a, p a l t o n- p a l t o, d i r ə k t i r- d i r e k t o r, l a p ə t k ə- l o p a t k a, b e l k u r a b u g ' a l t ы r- b u x g a l t e r, g i r b i s h i n- k r e p e d e s h i n k a b i l a r.

¹⁴ O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent 1982. 17b.

¹⁵ A.K.Borovkov Tadjikskogo - uzbekskoe dvuyazichie i voprosi vzaimovliyanii tadjikskogo i uzbekskogo yazikov. «Uchenie zapiski instituta vostokovedeniya». Tashkent 1952. str. 188.

I. Rus tilidan kirgan soʻzlarga oʻzbekcha affikslarni qoʻshishdan hosil boʻlgan yangi soʻzlar. Bu jihatdan ayniqsa «-**chi**» affiksi sermahsuldir. Masalan: *m a sh ʻ ʻ n ch i-m a sh i n i s t*, *i z a k o n ch i-q o n u n ch i*, *k a m b a y n ch i*-kombayner *t a b i l ch i -t a b e l ch i k*, *p o s h t a ch i- p o c h t a l i o n*, *a p t e k c h i:h a p t e k c h i a p t e k a r* kabilar.

Komponentidan biri oʻzbekcha biri ruscha boʻlgan soʻzlar yoki turgʻun birikmalar: *k o s t o n -c h o l b ʻ ʻ r-k o s t y u m s h i m*, *c h i k a n k a -c h e k a n k a q i l i s h*, *b u r a m a k l u c h-b u r a m a k l y u c h* va boshqalar. Misollardan koʻrinadiki, rus tilidan kirgan soʻzlardan bu shevada «qil» koʻmakchi feʻlini qoʻshib ishlatish bilan yangi lugʻaviy birliklar hosil qilinadi, Bulardan tashqari, adabiy tilimizdagi singari Toʻrtkoʻl-Ellikqalʼa shevachasida ham rus tili taʼsirida kalʼka yoʻli bilan paydo boʻlgan soʻzlar, birikmalar (bilan paydo) ham anchagina uchraydi. Masalan: *d a r i s t a y a r l a m a q - d a r s t a y o r l a m o q*, *m u s a b a q a oʻ y n a m a q-m u s o b a q a oʻ y n a m o*, *m a j l i s o t k a z m o k-m a j l i s o t k a z m o q* kabilar. Lekin shevada rus tili orqali kalka yoʻli bilan kirgan soʻzlar adabiy tilimizdagiga nisbatan juda kam uchraydi. Shunisi xarakterliki, bu shevada, umuman, boshqa oʻgʻuz-qipchoq shevalarida boʻlgani kabi kalka yoʻli bilan adabiy tilda qoʻllangan soʻzlarni qoʻllashga nisbatan koʻpincha rus tilidagi mavjud soʻzlarning oʻzini qoʻllashni qulayroq koʻradilar. Masalan: ehtiyot oʻrnida *z a p a s*, hisobot saylov birikmasi oʻrnida *a c h c h o t-o t c h e t*, *b e s h y i l l i k* oʻrnida *p e t i l e t k i* birikmasini qoʻllaydilar. Baʼzan adabiy tilda gapirishga oʻrgangan kishilar oʻz nutqlarida adabiy tilimizda mavjud boʻlgan soʻz va birikmalar bilan parallel ravishda ishlatiladilar. Umuman olganda, rus tilidan kirgan soʻzlar bu sheva vakillari nutqida adabiy tildagiga nisbatan koʻproq qoʻllaniladi. Masalan: sheva vakillari koʻpincha *k a s a l x o n a* yoki *s h i f o x o n a* soʻzi oʻrnida *b o l ʻ ʻ n s a-b o l n i s a*, roʻyxat oʻrnida

i s p i s k a - s p i s k a, *t u gʻ r u q x o n a* soʻzi oʻrnida *r a d d o m-r o d i l n iʼ y d o m v a h*. Chetdan qaraganda sheva vakillarining adabiy tildagi mavjud soʻzlarga nisbatan rus tilidan kirgan soʻzlarni koʻplab qoʻllash faktlari pala-partish

munosabatda bo'lganidek tuyuladi. Aslida esa, bunday tabiiy qonuniyat va hayot mantiqi borligi aniqlanadi.

Adabiy tilda endigina kalka yo'li bilan yuzaga kelayotgan so'z va terminlar esa, xususan, ularning arab, fors-tojik tillariga oidlari sheva vakillarining nutqi va tushunchasi uchun hali sinovdan o'tmagan material sanaladi. Buning ustiga ularni to'g'ri topib, ifoda jihatdan to'g'ri qo'llay bilish kerak. Buning hammasini bir nutq jarayonida bajarish tilshunos bo'lmagan kishilar uchun juda murakkab ish. Shuning uchun ham sheva vakillari rus tilidan kirib kelayotgan so'zlarning adabiy tilimizda yaratilgan ekvivalentini qidirib o'tirmasdan tayyor ruscha so'z va iboralarni qo'llab qo'ya qoladilar.

Yuqorida sanab o'tilgan misollardan ko'rinadiki, adabiy tilimizda kalka yo'li bilan yuzaga kelgan so'z va terminlarning deyarli hammasi bir necha so'zdan yasalgan tarkibli (sostavli) murakkab so'z va terminlardir. Masalan: sheva vakillari nutqida adabiy tilimizdagi «tejamoq» o'rnida *ekānom qi'l* ikki so'zning qo'llanish hodisasini uchratdik. Boshqa aksariyat hollardan adabiy tildagi murakkab va ko'p tarkibli so'zlar o'rnida ixcham va bir soddaga so'zlar qo'llanilgan. Ana shu ixchamlikka, soddalikka intilish sheva vakillari nutqida bevosita ruscha so'zlarning adabiy tilimizdagiga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga olib kelgan.

Adabiy tilimizda kalka yo'li bilan yuzaga kelgan va o'g'iz-qipchoq shevalari vakillari nutqida qabul qilinmagan so'zlar, birikmalar ko'pchiligining bir komponenti aslida arab yoki fors-tojik hamda rus tilidan kirib kelgan so'zlardir. Masalan: *h i s o b o t*, *sh i f o x o n a*, *e h t i y o t*, huquqshunos ma'nosi singari.

Demak, To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi vakillari uchun o'z tilida bo'lmagan va amalda uncha qo'llanilmagan yarim sun'iy so'zlarga nisbatan o'z tilida hali to'liq qo'llanilmagan bo'lsa-da, lekin amalda to'liq qo'llanib turgan va hozirgi real hayot bilan bog'liq bo'lgan ruscha so'z va terminlarni qabul qilish va amalda qo'llash mantiqan to'g'ri, qonuniy hisoblanadi. Chunonchi, adabiy tilimizda bir vaqtlar qo'llangan ***bo'yinbog'*** so'zi o'rnida *g a l u s t u k* so'zi qo'llaniladi. Shunga ko'ra, xulosa tarzida shuni aytish kerakki, adabiy til aslida mahalliy dialekt va shevalarga nisbatan tilning ancha ishlangan, silliqlashgan va o'z me'yoriga tushgan oliy

shakli bo'lishiga, xalq shevalariga nisbatan ancha taraqqiy etganiga qaramasdan, o'zida arxaik elementlarni tashuvchi yoki ularni himoya qiluvchi til sifatida gavdalanadi.

III BOB

TURARJOY NOMLARINI IFODALOVCHI LMG

Akademik Shonazar Shoabdurahmonov juda to'g'ri ta'kidlaganidek, «Agar yaqin kelajakda o'zbek traditsion leksikasi to'laligi bilan qayd qilib olinmasa, u kekxa avlod tugab borishi bilan tilning ular xazinasida saqlanib bizgacha yetib kelgan qimmatli materiallarning bir qismi hamishalikka yo'qolishi mumkin»¹⁶. Ayni holat nafaqat mavzuning dolzarbligini, balki uni o'rganishning hozirgi avlod uchun juda katta ma'rifiy-ma'naviy ahamiyati ham borligini ko'rsatib turibdi.

Turarjoyga (binokorlik)ka oid leksika o'zbek adabiy tili va uning shevalarida ham kasb-hunar leksikasining ajralmas bir sohasidir. Bu soha ham kasb-hunarning boshqa sohalari kabi uzoq tarixga ega bo'lib, xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, estetik didi, udumlariga, urf odatlariga bevosita bog'liq bo'lgan ko'pgina sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu boisdan, mazkur leksik qatlamda turarjoy qurish, uni yangilashga tayyorlash, bezatish, duradgorlik, temirchilik, etnografik, joyo'rin olish, tomorqa, qurilish materiallari, mehnat qurollari bilan bevosita bog'liq o'z va o'zlashgan leksik qatlam keng joy olgan. Chunki imorat duradgorning ishtirokisiz yashashga tayyor bo'lmaganidek, duradgor va binokorlarning ayrim qurollari temirchi mehnati vositasida ham ishlatiladi. Shu boisdan, binokorlik leksikasida *tarash kəpchə, gultarash, xu'mra, əpənək, atlama, temir gu'lmala:yilmala, ag'ach yilmala, kasaki, xandakchi, pesh (bir pesh loy, pesh qayuv)* kabi minglab so'zlar ham binokorlik leksikasiga bevosita bog'liqdir.¹⁷ «Til ijtimoiy hayotning o'ziga xos borometri»¹⁸ ekan, binokorlik leksikasidagi mavjud leksik qatlam o'zbek adabiy tili va uning shevalari lug'at tarkibida asrlar davomida yashab kelmoqda. Shubhasiz, To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarining Sho'raxon, Miskin, Oqqamish, Oqboshli, Turkmanko'l, Qozoqlik, Qoraxonboy, Bog'yop, Tozabog'yop, Ullibog', Igdir, Guldirdin, Sarabiy,

¹⁶ Sh.Shoabdurahmonov «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» «Fan», T., 1962, 325-b.

¹⁷ Izoh: Ishda ayrim sabablarga ko'ra o'zbek diyalektologiyasi va leksikografiyasi dagi an'anaviy transkripsiyani soddarok variyanti qo'llanildi. Jig'ach: yig'ach kabi.

¹⁸ Desheriev Yu.D. Sotsial'naya lingvistika. Moskva, 1977, str 8.

Qilchinq, Amirobod, Qirqqizobod, Qirqqiz, Ang'it, Chayka, Qizilqal'a, To'proqqal'a, Dumanqal'a, Bo'zqal'a, Oqchako'l, Chalabosh, Saxtiyon, Norinjonbobo YOnbashqal'a, Ayozaqal'a, Burgutqal'a, Qo'zo'lqal'a, Sariqamish, kabi qishloqlarida o'zbeklar qadimdan o'troq tarzda yashab keladilar. Ularning nutqida turarjoyga tegishli o'z va o'zlashgan leksik qatlam ko'p uchraydi.

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida uchraydigan ko'pgina o'z va o'zlashgan leksik qatlamni qadimgi turkiy yozma yodgorliklari, Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Alisher Navoiy, Bobur asarlari tili, hozirgi qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa turkiy xalqlari tillari va shevalarining lug'at boyligida ham qayd qilindi: *kətərgi, zambər, kərvych:g'isht, chəkkich, bolg'a, qapi', ul-fundament, qo'rg', i'i rəndə* va b.

Bulardan poydevor-fundament ma'nosidagi *ul* terminidan boshqalari *kətərgi* (trap, *qi'rg'i', irəndə, chəkkich:chəkich, qapi* eshik) shakllarida qisman fonetik o'zgarishlarga uchragan holda «Devon» da ham qayd qilinadi. Xuddi shunday XV asr o'zbek tilida ham *uy, olachuq, xisht, ayvon, ravoq-ayvon* (NAL.II.595) NAL. 36,483,623,657.) kabi binokorlik terminlari uchraydi. Chunki, Navoiy tili leksikasida ilm-fanga, kasb-hunarga oid so'z-terminlar benihoya ko'pdir.¹⁹

Demak, binokorlik terminlari o'zbek adabiy tilining tarixiy yozma yodgorliklaridagi kabi o'zbek tilining To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida ham xalqimiz tarixi bilan barobar paydo bo'lib, taraqqiy qilib yashab kelmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti, xalqimizning turmush tarzi bilan bog'liq holda turarjoy bilan bog'liq yangi so'zlar kirib keldi. Masalan: sement, aliybastr, kottedj, temir biyton, pili:ta, domkombi:nat, kolxozstroy, quri'lishbashqarmasi' Minselxozstroy, Milkambinat, Mi'yaskambinat kabi minglab lug'aviy birliklar rus tili orqali evropa tillaridan o'zlashdi.

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida uchraydigan ko'pgina o'z va o'zlashgan leksik qatlamni qadimgi turkiy yozma yodgorliklari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Alisher Navoiy, Bobur asarlari tili, hozirgi qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa turkiy xalqlari tillari va shevalarining lug'at boyligida ham

¹⁹ Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent, 1972 B:16.

qayd qilindi: *kətərgi, zambər, kərvych:g'isht, chəkkich, bolg'a, qapi', ul-fundament, qo'rg', i'i rəndə* va b.

Turarjoy leksikasi bilan bog'liq o'z va o'zlashgan lug'aviy birliklar o'z navbatida bir necha leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etadi. Bular:

1. turarjoy va uning qismlari nomlarini bildiruvchi LSG.
2. Qurilish materiallari, binokorlikda ishlatiladigan qurol-asbob nomlarini bildiruvchi LSG.
3. kasb egalari, mehnat faoliyati nomini ifodalovchi LSG.
4. Binokorlik leksikasida o'zlashgan LSG va b.

Turarjoy leksikasi bilan bog'liq o'z va o'zlashgan lug'aviy birliklar o'z navbatida bir necha leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etadi. Bular: 1 turarjoy va uning qismlari nomlarini bildiruvchi LSG. 2. Qurilish materiallari, binokorlikda ishlatiladigan qurol-asbob nomlarini bildiruvchi LSG. 3. kasb egalari, mehnat faoliyati nomini ifodalovchi LSG. 4. Binokorlik leksikasida o'zlashgan LSG va b.

To'rtko'l-ellikqal'a shevasida binokorlik leksikasida yashash, hayot kechirish o'rni, xizmat o'rni kabi umumiy ma'nolarda ishlatiladigan so'zlar mavjud: *djay saldi'*, uy qurdi', pi''lan pichti, qazi'q qaqdi', djoy onni' aldi' kabilar.

Bu holat o'zbek adabiy tilida ham mavjud bo'lib, ta'kidlangan ma'noda *bino: joy:uy: imorat* kabi 4 ta so'z o'zaro sinonimik ma'noda ishlatiladi. Bulardan *bino, imorat, katta uy, joy va uy eski yashash, hayot kechirish* kabi turarjoy ma'nolarini bildiradi. (O'zTIL. I. 115, 325, O'zTIL. II. 284.285.)

Mazkur atamalardagi shunday vazifani ayrim turkiy tillarda ham uchratamiz: turkman: *tam, jay, bina* (TRS. 98,318,616); qqlp.: *jay:uy* (KKRSL. 221)

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, *bino, imorat* nomlari sheva vakillari nutqida birmuncha arxaiklashgan bo'lib, ko'proq shevaning keksa bo'g'inlari nutqiga xos hisoblanadi, joy:uy so'zlari esa sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi..

Bundan *uy* termini o'rganialyotgan ob'ektda joy, imorat, bino, xonadon ma'nolariga ham ega: bag'alardi'᠑ uyinə ketti: balani' öyinə getti; qo᠑shi'ni' öyini i'riymot ətəpmən; hər kim öyinə biy, djora!

3.1. TURARJOY QISMLARINI IFODALOVCHI LSG

Di'rinaq- poydevor, rus. fundament-imoratning asosi, tamal toshidir. Tarixan ayni ma'noda **ul** so'zi ishlatilgan. U devor va uylarning poydevori deb izohlangan: **tam** uli'-devor poydevori (DLT. I. 245-301)

Tabiiyki, yashash joylarimiz kabi uning qismlari ham tarixan materialiga ko'ra turlicha nomlangan: To'rtk-Elk.: **loy di'rinaq, qami'sh di'rinaq, yag'ach di'rinaq, dash ti'rinaq** kabilar. Hazi'rqi'day **sement, shi:ybonkələr**.

Olinma:anli'qtan **jaylara qami'sh di'rinaq, yag'ach di'rinaq** salanlar (SHo'rx..) Qiyoslang: qqbad. fundament. poydevor bino, inshoot yoki ularning ayrim qismi ostiga tayanch uchun qo'yilgan asos;. Tosh poydevor ustun, poydevor: paydevoriga pishiq g'isht, boshqasiga xom g'isht qo'yib qo'ya qolsalaring nima bo'ladi? (P.Tursun. O'qituvchi. O'zTIL.1.595)

q a n a t (qqbad.)-joyning to'rt tomoni: **arqa qanat, kumbatar qanat, gunchi'qar qanat**: këmækchilə azraq voldi'mi' diymən, jayni' udj qanati' bittida:in bir qanati' chala bop qaldi'.

p a x s a devor—pishitilgan loydan usma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qatori: Ustani'ḡ irədjəsinə gərə əyvan vinən zal besh paxsadan, dalan uch paxsadan basti'ri'ladi' (Amrb.); hər paxsada bir këmæk vosa djay degən bitəvərədi.

imorat-qismlaridan **dalan ,dəliz, əyvan, ashxana: qazanxana: qazantam: kuxna; miymanxana: meymandjay; əyvancha: dərsayvan :tərisəyvan; g'allaxana: tələk; bəlmə:hədjirə:qat: hazırğigyndə veyranda, teraska, podval, balkon, zal, komnata, i'spalno'y, detskiy, gazxana** kabi qator so'z terminlari o'sha xonaning xoslanganligi, mo'ljallanganligiga ko'ra nomlanishi rus tili orqali evropa tillaridan o'zlashgandir. Shunisi diqqatga sazovorki, ko'rsatilgan terminlardan **bəlmə:hədjirə** kabi so'zlar arxaiklashgan. Ushbu so'zlar XVI asr o'zbek tilida faol ishlatilgan.: **bo'lajak xujrəning** rejasi chizilgan tarxni o'rab oldi (Yulduz. tun. 66). Bobur ikkinchi qavatdagi **xobgoshda** isitmalab yotgan edi (Yulduz. tun. 112)

Bino qismlarining biri **ayvon** mavjud leksikografik manbalarda uch tomoni berk, oldi ochiq xona deb izohlangan. (O'zTIL 1.31). Fikrimizcha, bu izoh Xorazm, Qoraqalpog'iston territoriyasida yashovchi uysozlar nutqidagi **tarsayvan**, **ayvancha** terminlarining funktsiyasi va mazmuniga to'g'ri keladi. Shu boisdan ayvon terminini to'rt tomoni ham berk, bahor, kuz, yoz oylariga moslangan binoning eng katta xonasi deb tushunish ma'qulroq ko'rinadi. Qiyoslang: qqalp. ayo'an (KKRSL. 29) (ad.orf.).

dalan - Etimologik jihatdan fors-tojik tiliga mansub bo'lib, uyga kiraverishdagi keng yo'lak ma'nosini ifodalaydi. Oyinə kirib oti'rmadi'm, dalani'nnan qaytti'm (Sho'rx.).

dəliz - dahliz-uyning kiraverishidagi birinchi xona: **Dəliz tar volmasi'n, usta, oqa kiyim asatug'o'n qoyarmi'z, axi'r** (Qilch.).

Ehtimol, yuqoridagi izoh tarixan to'g'ridir, ayvon terminining ma'nosida siljish bo'lgandir. Chunki, Navoiyda ayvon oldi ochiq, yuksak bino, qasr, ko'shk tarzda izohlangan (NAL.36)

guḡirə:gu'ḡgirə. ad. orf. kungura- joyning to'rt tomonidagi burchaklari va darvoza, yozgi eshikning ikki tomoniga loydan ishlangan 8-10 tagacha bo'lgan minorasifat bezak. Hazir gymbəz naqi'shli gḡḡgərələr yoqali'p gi:tti (Sarb.). Qiyoslang: Kungira va shinaklar bo'lmasa, devor ustidagi odamning qorasi pastdan ko'rinib qolishi mumkin edi. (Yuld.tun.162); qqalp. gḡḡgöre –bashnya v stene (KKRSL. 145)

Turarjoylar, umuman, har qanday imorat o'zbek adabiy tilida ham, uning shevalarida ham (ad.orf. **paxsa joy, g'isht joy, kerkaz joy**) kabi turlarga bo'linadi. Bularning qismlarini bildiruvchi so'z-terminlar uchalasiga ham mushtarakdir. Lekin keyingisining detallarida o'ziga xos nomlanishlar ham bor:

saz sinch –ostki va ustki sazlardagi maxsus ishlangan chuqurchalarga birkiriladigan nozikroq uzun yog'ochlar.

atlama – sozlarning to'rt burchagini ularning bir-biriga birlashtirilgan joylarini mustahkamlovchi temirchilik dastgohlarida tayyorlangan ikki uchi bukuk moslama. (rus. texnikaviy termin. skoba. RuzSl. 788)

O'zbek tilining To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida **chəpkəri, kərkəs** terminlari yog'ochdan qurilgan joy, imorat. Mavjud leksikografik manbalarda **kərkəs** ad.orf. karkas italiyan tilidan rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. U inshoot yoki qurilmaning metall yoxud yog'och sinchlari, skleti: temir-beton korkasi deb izoh berilgan (O'zTIL 1. 369). Biroq «Attuhfa»da ayni ma'noda kərkəs so'zi mavjudkim (Attufa.216), bu hisob karkas terminining rus tili orqali o'zlashgan degan fikr haqida o'ylab ko'rishni talab qiladi.

O'rganilayotgan shevada karkas joylar materialiga ko'ra nigirliklar orasiga qo'yiladigan qamish kərkəs (chom kərkəs, kərbich kərkəs, zuvala kərkəs) deb uch turga bo'linadi. Bularni bir umumlashgan ma'noga biriktiruvchi chəpkəri termini imoratning pastki va ustki sozlariga nozik yog'ochlar, ya'ni qamishchalarni berkitib, ularning oralarini qamish chəp xas g'ishtlar bilan berkitib shuvoq qilinib tayyorlangan imorat: cho'pkərini qi'yshayqani qi'rq yil duradi'(Byop.).

Bu termin fors-tojik tilida cho'b va kor morfemalarining birikuvidan tuzilgan bo'lib, cho'b-yog'och, kor-hunar, kasb ma'nolarini anglatadi.

Demak, **cho'bkori** –sinchli imorat quruvchi usta, **cho'bkori** – yog'ochdan qilingan imorat demakdir. (FZT.1. 551, II.561)

Xullas, To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidagi **chəpkəri, kərkəs, nigirlik** terminlari o'zbek adabiy tilidagi **sinchli uy** termini ma'nosida ishlatiladi. Qarang. sinchli uzun ayvon (O'zTIL 1.,53) kabilar.

Hozirgi arxaik hisoblangan **tu'ynu'k:tu'hlək, dərchə, rəpchə, təkchə, mina** kabilar, zamonaviy hisoblangan **ayna, zulp, joy, eshik-qapi, ruchka-tutqa, qullab, dərvaza, portichkə** kabi qator terminlar bino tarkibiy qismining nomlarini bildiradi.

eshik, dərvoza qismlarining ham detallashtirilgan nomlari mavjud: *yanqazi'q, bosag'a, tu'lu'm, tulumjoy, zulf kabi tarixiy; karobka, kəsəki, topsa, tutqa-ruchka* kabi zamonaviy terminlar.

Bu kabilar ishning lug'at qismida ilova qilinadi. Ko'rsatilgan terminlar tu'ynu'k:tu'hlə'k. «Devon»da tunluk shaklida (DLT. III, 394) xona shipining

o'rtasidan yorug' tushub turishi uchun qo'yilgan kichikroq ochiq, o'rinni (ad.orf. tuynuk) ifodalaydi.

Ayni ma'noda Navoiy asarlari lug'atida, Hamza asarlarida etimologik jihatdan fors-tojik tiliga mansub **tobadon**, **tovadon** so'zlari ishlatilgan. Qarang: tobadon-uyga yorug' tushsin uchun eshikning tepasidan qo'yilgan tuynuk, darcha (NAL. 610; NATIL III, 236) -Qodirqul olib bir ko'raylik... uyning bir burchagida yoki bir toparmiz, o'zini uyning tovodonida ko'rar, nima?! (Hamza II, tom. 1960, 82.); yana qiyoslang. SHu xonadon qizlari cho'miladigan bo'lmaga maxfiy bir tuynuk ochilgan. Sulton Maxmud Mirzo o'sha tuynukdan qizlarning cho'milishini tomosha qilardi. (Yuld. tun.143).

Demak, bu termin o'rganilayotgan shevada qisman fonetik o'zgarish bilan (tuḥluk-tun'lək-to'ynu'k) tarixiy ma'nosini saqlab qolgan.

d ə r ə ch ə - qadimgi joylarda hozirgi deraza vazifasini bajargan devorga o'rnatilgan kichkina yashikli ochiq o'rin: **ayna djayi'** dərəchədiyn bosimmi' ya ulli'raq vosimmi'?

O'sha ma'noda mavjud lug'atlarimizda darcha-daracha terminlari mavjud bo'lib, keltirilgan lug'at maqolalari bizning izohimizga to'g'ri keladi: daricha-yuqori uslubga mansub, ayni darcha ma'nosida. Darcha- ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tabaqali eshik: Darchasi berk bo'lganligidan uy ichi qorong'iroq edi. «Qutlug' qon» (O'zTIL. 1, 211-212). **dəkhə:təkhə** (ad.orf. tokcha) – turli buyumlar qo'yish uchun devorga o'yib ishlangan maxsus joy: **Əy**, qoysaḥa dəkhəni ne:rdan biliyin, polka desəḥ bir yən, o'nam taxtadan du'zətəmis (Guld.).

3.2. BINOKORLIK LEKSIKASIDA MATERIAL, QUROL NOMLARINI IFODALOVCHI LSG

Binokorlik leksikasi ijtimoiy hayotning bir necha sohalarini aks ettirganidan, unda ishlatiladigan xom ashyolarni ifodalovchi terminlar ham rang-barangdir. Pishiq loydan paxsa urib quriladigan joylarda, asosan, **yog'och**, **g'isht**,

taxta, ohak, ganch, tsement, tosh kabi materiallar ishlatiladi. Bular mazkur sohaning asosiy terminlari hisoblanadi. Ko'rsatilganlardan ba'zilari «Devon» da ham qayd qilindi: yog'ach, tash, kərpich, bolchi'q (DLT. III, 18;1-353). to'rtko'-ellikqal'al shevasida ham, shuningdek, o'zbek adabiy tilida ham bu leksemalar turli shakllarida fonetik o'zgarishlar bilan binokorlik materiallari ma'nosida ishlatiladi: ag'ach, kərpich, g'i/shtin, pishkən kərvich, hək, siymont, sement kabi. Ma'lumki, Navoiy XV asr badiiy uslubi talablariga ko'ra fors-tojik tiliga mansub *g'isht xisht* bilan turkiy *kirpich* terminini sinonimik maqsadda ishlatilgan.

Falak boshingga *kirpich* mittakosi qilg'usi gar xud,

Bu dam Xurshid *xushtidin* boshingg'a muttaka etgay.

(NAL. 313)

O'zbek adabiy tilida leksik norma sifatida g'isht faol ishlatilgani holda, ayrim turkiy tillarda, xuddi To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidagidek *karvich* : *karbich:kərbich* faol qo'llanadi. Qiyoslang. qqalp. gerbish:kerbish (KKRSL.137,315); turkm. kerpich: bishen kerpich, chig kerpich (TRS. 339).

Binoning tomini berkitish-yopishda ishlatiladigan *balar, xada, qalamcha, qash-qashag'ach, boyra-qamish boyra, chipta, saman* kabi so'zlar materiallarning nomini bildiradi.

balar - (rus.drevno;uzb. yog'och, g'o'la. (O'zRSl. 55).

xoda - ikki devori ustida gorizantal (kesasiga) holatda qo'yiladigan yog'och. *bolarboshi* – bolorlik yog'ochlar tagiga paxsa ustidan uzunasiga qo'yiladigan *xoda, qalamcha* (hozirgi kunda taxta yoki gorbil, pushtaxta, garbil): baladi'q sano' hədjirəniḡ uzi'ni'na qaro'ydi'. Səniḡ *hədjirələriḡ di'm ulli'-qu, balar kərəgəv*, djora. Balar *bashi'nda məkkəmrək* vosi'n.

qash:qashag'ach- nafaqat To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida, umuman, Xorazm vohasida imoratning eng katta xonalari: *ayvon, tərsayvon, ayvancha, og'ilxonalarning* ustini yopishda xona sathining o'rtasidan ikki devor ustiga kesasiga-gorizantal holatda qo'yiladigan 8-10 metrlik yo'g'on katta yog'och(mahalliy *oq terak*: ag'achlari' talmasin deb ayvan, hovli (og'ilxona)lari *qashvilən* basti'ratug'on ədik (Sarab.). Bu o'rinda shu fakt ham xarakterliki,

o'zbekcha leksikografik manbalardan birida ko'rsatilgan ma'noda fors-tojikcha **sarro** termini «Binoning ikki yon devoriga to'sinlar ostiga solinadigan yog'och» deb chalkashroq izohlangan (O'zTIL II, 25) Buni, fikrimizcha, to'sinlar ustiga solinadigan uzun, yo'g'on yog'och tarzida izohlash ma'qulroqqa o'xshaydi.

or - qashliq tolmasi'n uchun uning o'rtasidan tik qo'yiladigan yo'g'on yog'ochga nisbatan **or**. (ustun) termini ishlatiladi.

Ustunning ustiga qosh bilan ustun oraligiga qo'yiladigan yog'och moslamani ustinning tagidan qo'yiladigan moslamani **or***ayaq: o'rayaq:or**payta: or basho or yasti'*q variantlari mavjud.

Tubandagi terminlar binokorlik leksikasida eng zarur qurol-asbob nomlarini bildiradi: **paxsa urib** pishiq loydan quriladigan imorat qurilishda **k***apch*, **tarash k***apch*, **gultarash k***apch*, **reja yip**, **g***atayaq*, **d***jilbir*, **lay**, **toqmoq**, **sh***aytan*, **z***amb*, **qalaq** kabilar.

g*'ishtin* imoratlar qurishda **sh***aytan* ugol ko'rsatkich, **masterok**, **trap**, **tiraptuqir**, **kazyol**, **ash***ak* kabilar.

Zamonaviy mexanizatsiyalashgan qurilishlarda: **rastvorameshalka betonameshalka** ad. orf. rastvorameshalka, **betonameshalka**, ohak va qum aralashgan loy qoradigan tsement, qum, maydalangan tosh-beton qoradigan mashina, **karita**, **akaroka** va b.

Bulardan ayrimlarining ma'nolarini keltiramiz:

shaytan. O'zbek tili lug'atida asl ma'nosida odamlarni yo'ldan ozdiruvchi jinoyat, razolatga boshlovchi diniy tushuncha-afsonaviy maxluq, iblis deb izohlangan (O'zTIL. II, 391)

U binokorlik leksikasida tamoman boshqa ma'no kasb etgan bo'lib, bir uchiga tosh bog'langan **ip**. Undan binokorlar imorat va uning qismlarining to'g'riligini aniqlashda foydalanadilar. Buni uzun reja ipdan farqlagan holda binokorlar **shaytan: sheytan:shaytan reja** deb ham yuritadilar,.qarang: rus..otves. texnikaviy termin bo'lib, u osma, tosh bog'langan ip, reja ma'nolarida ishlatiladi. (RUzSl. 498)

gəztayaq - imorat va uning qismlarining uzunligi, xonalar sathini, paxsaning enini o'lchashda qo'llaniladigan o'lchov quroli. Gəz ad.orf. gaz: 1) binokorlar nutqida 0,75 sm uzunlikni (ular chorak kam bir metr deb tushuntiradilar) bildiradi. U aslida fors-tojik tiliga mansub bo'lib, metrlik sistema qabul qilinganga qadar eski uslubda 0,75 smga teng uzunlik o'lchovini bildirgan. (O'zTIL 1.182).

djilbir yumshoq qildan tayyorlangan paxsa joylar sirtiga jilo beradigan, silliq ko'rsatishda qo'llaniladigan asbob.

Paxsa joylarning to'rtinchi, beshinchi paxsalariga, pardevorga loy uzatishda loy otishda ishlatiladigan maxsus yog'och moslamalar **havaza** deb yuritilgan. Hozirgi kundagi g'ishtin imoratlar qurilishida binolarning remontida bu termin bilan parallel holda tirap, sport termini hisoblangan kazyol (rus. kozyol-obito'y kojey korotkiy brus na podstavkix dlya gimnasiticheskix uprajneniy O.J S.R.YA 228) va ko'chma ma'noda **ashək: ko'targi** terminlari ishlatiladi.

Bu o'rinda shu fakt diqqatga sazovorki, binokorlikda oldingi variantlarga nisbatan arxaik hisoblangan, aravaszlikda aravaning asosiy qismlaridan biri hisoblangan **kətərgi** termini Mahmud Qoshg'ariyning qomusida **kuturku** shaklida g'isht ko'taradigan asbob deb binokorlik termini sifatida izohlangan. (DLT. 452).

SHuningdek, XVI asr quruvchilari hayoti haqida ma'lumot beruvchi asarlardan birida ham **havoza** binokorlik terminidir... **Havoza** ustida ishlayotgan paytida.... havoza dan pastga itarib yubordi. (Yuld. tun.312).

kəpçə ad.orf. kapcha-tig'ining yuqori qismi yalpoq temirgardishli, shevada **jaychi'qli'** binokorlar ish quroli. Bundan ko'pincha paxsaga loy uzutiladi-otiladi, foydalaniladi.

tarash kəpəçə (ad.orf.tarash kapcha) –tig'i g'oyat keskir, dastasi uzun, gardishsiz kapcha. Bundan paxsani to'g'rilash, silliqlash uchun foydalniladi: **ataq djora, kəpçəni bərip dur, loyin asilg'anin alvəriyin**, qiyoslang: turkm.: kepje (TRS. 392)

Garchi **qi'rgi'** surgi, **irəndə** rubanki, **pug'aŋki**, rus. fugonok-dlinno'y stolyarni'y rubonok (O.J.S.R.YA. 701), **burav, qachav, zibil, yarg'i', pi'chqi':pu'chqi'** durodgorlik terminlari hisoblansada, binokorlikni durodgorning

ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Shu boisdan ular binokorlikka bilvosita aloqodori terminlar guruhiga kiritiladi. Tarixan ham

tur - b u k-randa «Devon»da binokorlik sohasida qoʻllanadigan qurol nomlari ekan. (DP.T. 1. 441).

3.3. KASB EGALARI, MEHNAT FAOLIYAT BILAN BOGʻLIQ LSG

Bulardan baʼzilarining maʼnosi tubandagicha:

laykash(lar)-hashar kuni imorat qurilishida ishlovchilarning umumlashtirilgan nomi. Xobdakdan loy chiqaradigan, loyni paxsaga otish uchun tayyorlaydigan shaxslar.

paxsakash -loyni tayyor holatga keltiruvchilar.

peshman ad.orf. paxsakash, peshmon-pishiqli loyni paxsaga qoʻyib turuvchi, yaʼni paxsa oʻruvchi usta.

ataq- pishirilgan loyni peshmonga **kapcha bilan** peshma-pesh uzatib turuvchi shaxs. Bu harakatning **chap va oʻng** tomonga qarab bajaruvchilarga loyni uzatuvchilarga nisbatan **oʻh a t a q,; ch a p a t a q; chabakay soʻlaqay:voʻhaqayataq** terminlari ishlatiladi.

Umumlashtiruvchi termin sifatida **binokor, meʼmor, binokorlik, meʼmorlik, usta** kabi tarixiy oʻzlashmalar **pirorab, master, injiral:injiner** kabi zamonaviy oʻzlashmalar ham binokorlik leksikasining kasb egalari nomini bildiruvchi terminlardir, bular maxsus oʻrganishni talab qiladi.

Xuddi shunday, **laychiʼ, qandakchi, shakarapchiʼ:shakalaapchʼt** kabi qator terminlar ham binokorlikdagi kasb egalari nomlarini bildiruvchi terminlardir.

Sinchli uylar, chopkori joylar qurishda **atlama qagʻuv, chom baylav, nigirik qagʻuv, shaxna siʼbav, burgiʼ beruv, tirapbardi bəruv** kabi koʻpgina terminlar **chopkari** imoratlarni yasashga tayyorlashdagi mehnat jarayoni nomlarini bildiradi. Masalan: poydevorga yotqizilgan uzun katta yogoch uchlarini birlashtirishda uch bukuk termir qoqish harakatiga **atlama qagʻiʼu** deyiladi. Qamishni oʻrtacha kattalikda nigirik oralariga moslab bogʻlashni **chom baylav** deyiladi.

Binokorlik leksikasida bo'yoq, bo'yoqchilik bilan aloqador **bo'yoqchi, traparetni, ayaqcha sopojok, gurunovka qilish** kabi qator terminlar ham faol ishlatiladi. Ular, asosan, bir jarayonni-turarjoylarni ohaklash, pol, ship, deraza-eshiklarini ranglash jarayonida ishlaydigan kasb egalarining va mehnat jarayoni nomlarini bildiradi.

Xullas, binokorlik leksikasi rang-barang ko'p qirrali kasb-hunar sohalarini: me'morchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, toshtaroshlik kabi beshta sohani o'zida mujassamlashtiradi. Bu o'rinda faqat me'morchilik –uy-joy qurilishiga oid xarakterli terminlar so'z qilindi. Chunki, bizning ob'ektimizda keyingi sohalar taraqqiy etmaganlikdan toshtaroshlik, ganchkorlik, koshinpozlikka oid so'z terminlar sheva vakillari nutqida kam ishlatiladi.

Binokorlikka oid terminlar maxsus manbalarda 20 ta leksik-semantik mavzu guruhni tashkil etadi²⁰. Biz to'plagan faktik materiallar tasnifidan kelib chiqib, ularni turarjoy qismlari, material, qurol, kasb egalari, mehnat jarayoni nomlarini ifodalovchi terminlar tasnifida ko'rsatdik.

Dastlabki, tahlildan ma'lum bo'lishicha, binokorlik leksikasidagi ko'pgina terminlarning shakllanishi (tarixiy yodgorliklarda ko'rsatilishicha) uzoq tarixga ega ekan: «Devon» da **kotargi, irondə, siri'q xoda**, «Attuhfa»dagi **kerkas** kabi terminlar.

Binokorlik leksikasida qator terminlar tarixiy ob'ektiv qonuniyatlarga ko'ra fors-tojik, arab, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan terminlar ham mavjud. Bular sheva vakillari nutqida ba'zi fonetik o'zgarishlarga uchragan holda xuddi o'z qatlamga mansub terminlar kabi ishlatiladi.

3.4. BINOKORLIK LEKSIKASIDAGI O'ZLASHGAN LMG

XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda konkret predmet nomi, o'zbek xalqi turmush tarzi uchun yangilik bo'lgan terminlar rus tili orqali o'zlashgani²¹ ma'lum.

²⁰ Tursunov T. Me'morlik terminlarining leksik-grammatik tadqiqi. -Toshkent, «Fan» . 1987.

²¹ Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy tarixiy asoslari. O'zbek tili leksikologiyasi «Fan», T., 1981 41-158-betlar.

Buni binokorlik leksikasidagi *katak, pigment, lazur, guash, kistichka* kabi birgina bo'yoqchilik kasbidagi ad.orf. pigment-bo'yoq moddasi, lazur-turli rangdagi bo'yoq moddasi, guash-akvarel, kraska (OJ.SRYA.120) kabi eng faol terminlardan ham yaqqol ko'rish mumkin.

Demak, o'zbek tili umumlug'attarkibining professionalizmlar hamda texnikaviy terminlar guruhini tashkil qiluvchi binokorlikda ham o'zlashma terminlar ishlatilishi qonuniy hodisa hisoblanadi. Buni biz tubandagi tasnifda beramiz:

3.4.1. BINOKORLIK LEKSIKASIDAGI FORS-TOJIKCHA LSG

O'zbek va tojiklarning qadimiy davrlardan bir territoriyada birgalikda hayot kechirishi, iqtisodiy sohalardagi aloqalari kasb-hunar leksikasiga, jumladan, binokorlik leksikasiga ham ba'zi terminlarning o'tishiga sabab bo'lgan.

Filologiya fanlari doktori Ernest Begmatov yuqoridagi eslatilgan ishda o'zbek tilining lug'atiga tojik tilidan o'zlashgan so'zlarni 33 ta LSMGga (leksik-semantik mavzuviy guruhga) ajratgan holda tavsif qiladi. Shuning oltinchi guruhi kasb-hunar, mashg'ulot bilan aloqador tushunchalar nomi bo'lib, unda binokorlikka oid duradgor, sangtarosh terminlari qayd qilingan. Prof.O.Madraximov esa, o'zbek xalq shevalari leksikasidagi fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar miqdorini hisoblab chiqib, 33 foiz deb ko'rsatadi. Chindan ham, uy-joy qurilishidagi birinchi mehnat jarayonini ifodalovchi joyning umumiy sathi ishg'ol qilingan o'rni haqidagi tushunchani ifodalovchi andoza terminini fors-tojikchadir: di'rnaqi'' H qazi'g'i'ni' andazag'a qarab qaqi'rla, bichimi buzilmasi'n, axir.

Shu o'rinda o'rganilayotgan sheva va ayrim turkiy tillardagi *di'rnaq qada*, *di'rnaq qazi'q* iboralaridagi kabi terminlari ma'nosidagi poydevor rus. fundament termini ham fors-tojik tiliga mansubdir. Qarang: andoza-bichim tayyorlash namunasi, o'sha mehnat jarayoni nomi poydevor (f.t) bino, inshoot yoki ularning ayrim qismlari ostiga tayanch uchun quriladigan mustahkam asos; fundament (O'zTIL.1. 46.595).

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ob'ektimizdagi o'zbek, qozoq,, qqalp. quruvchilarining eng keksa avlodlari nutqidagi *d i r n a q* termini saqlangan,

o'rta avlodlarida, asosan, pundamiyit–pundament termini ishlatiladi, uchinchi avlod **tirnaqning** fundament ekanligini bilmaydilar.

Imoratning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan **dalan**-darvozadan hovligacha qurilgan usti yopiq ikki tomoni devor keng yo'lak ad.orf. dalon - etimologik jihatdan fors-tojik tiliga mansub, o'zbek tilida dialektal so'z deb izohlangan (O'zTIL. 1, 232). Bu fikr adabiy tilga nisbatan to'g'ridir, biroq Xorazm vohasida qadimdan beri bu termin **dalan** (tilovxona tarzida parallel qo'llanib katta imoratga kirishdagi keng yo'lak ma'nosini bildiradi, qiyoslang: turkm. dalan (TRS.244).

dəliz - ad.orf. dahliz, rus. koridor-soedinyayuhiy otdel'noe chasti kvartiro'(OJ.SRYA 240), fors-tojik dahliz –uyning kiraverishidagi birinchi xona: Otabek kovushini dahlizga echdi. Hujraning dahlizga qaragan eshigi ochiq edi (O'zTIL. 1. 216).

Binoning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan **xona** ad.orf. xona uyning devor bilan alohida qismi ham fors-tojik tiliga mansub: qiz tomon xonaning poygagini band etdi. (O'zTIL. 331.) Shu boisdan ham, tadqiqot ob'ektimizda binodagi xonalar miqdoriga nisbatan **qat** (**besht qat joy** – beshxonali uy) va **bolme** terminlari parallel ishlatiladi. O'zbek tilining leksik me'yori sifatida ham ayni **xona** ma'nosida **bolma** so'zi ishlatiladi. Orzigul Hojini koridorning oxiridagi eshikka o'zining bo'lmasiga boshladi. (O'zTIL. 1. 162)

Xuddi shunday, imorat tarkibiy qismlarining xoslanishiga ko'ra nomlarini bildiruvchi etimologik jihatdan **meymanaxana:miymanaxana, ustaxana** ad.orf. mehmonxona, ustaxona kabi faol qo'llanuvchi qo'shma terminlarning har ikkala komponenti ham fors-tojikchadir: Mehmon (f.t)-to'y, ziyofat yoki boshqa munosabat bilan yo'qlab kelgan kishi. Xona (f.t) binoning bir qismi (O'zTIL 11 331). Demak, har ikkala komponent o'zbek tilining To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida ham mustaqil ma'noga ega, Ularning birikishidan tuzilgan meymanaxana: **miymanaxana** mehmonxona- uyning mehmon kutishga xoslangan alohida bir tarkibiy qismidir.

Xullas, mehmonxona, ustaxona, tərətxana (masjid, madrasalarda tahorat-ibodat qiladigan maxsus joy) tipidagi binokorlik leksikasining qo'shma terminlari hisoblanadi.

Imoratning asosiy materialiga ko'ra nomlanishidagi **ch o p k ə r i** termini ham etimologik jihatdan fors-tojik tiliga mansub, qiyoslang: fors-tojik. **ch o b**-yog'och, **kor**-hunar demakdir. SHunday ekan, mustaqil ma'noli ikki so'z **chəb**-quriq xas, o't; **kor**- ish, hunar-kasb; **chəbkar** 'yog'och uy', sinchli uy quruvchi usta demakdir. Termin oxiridagi **-i** yasovchi qo'shimcha bo'lib, boshqa joylarga nisbatan nisbiy sifat yasagan. -qanday joy? –**chəbkori joy** kabi (F.Z.T. 1.55.)

Bu o'rinda ayrim so'zlar izohini berdik, xolos. Jumladan, o'zbek adabiy tilidagi ustun, tobadon, tovan, g'isht, g'ishtkor, ganchkor adabiy til va To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidagi **paxsa**, **paxsakash** terminlari, **laykash** terminidagi ikkinchi affiks morfema ham fors-tojik tilidan o'zlashgandir.

paxsa- (f.t.)-pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qatori,

paxsakash- (f.t.) –paxsa devor quruvchi. Shu ma'noda (O'zTIL.1.580)

qash- tojikcha nimanidir bir joydan ikkinchi o'ringa olib bormoq, olib kelmoq ma'nosidagi o'tgan zamon fe'li. «Koshidon»ning o'zagi. Bunda o'zbekcha loy kash:loykash terminini yasalgani ko'rinib turibdi. (F.Z.T. 1, 546).

Qadimgi joylarning old tomoni va to'rt burchagidagi yuqorisi gumbazning shakliga o'xshagan ku'ngərə:gʻʏhgərə ad.orf. kungura - termini ham etimologik jihatdan o'zlashma termindir, qarang: fors-tojik, kungura- qal'a devorlari yoki imorat aylanasi tishga o'xshatib ishlangan arxitektura bezagi. Kungurador (f.t.) kungura kungira (NAL.. 11 139).

Demak, **g'isht**, **gaz**, **dalan**, **daliz**, **andaza**, **poydevor**, **ustaxona**, **tərətxana**, **chəbkori** kabi misollarimizning qiyosiy tahlili To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi binokorlik leksikasida ham umumo'zbek tili lug'at tarkibidagidek fors-tojik o'zlashmalarining ham sezilarli o'rni borligini ko'rsatdi.

3.4.2. BINOKORLIKDAGI ARABCHA O‘ZLASHMA LSG

O‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida aslida arabcha bo‘lgan anchagina so‘zlar mavjud. Bu VIII asrda arablarning O‘rta Osiyoni bosib olishi bilan izohlanadi. Natijada ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi kabi kasb-hunar va u bilan aloqador tushunchalarning nomini anglatuvchi so‘zlar ham o‘zlashdikim, bular binokorlik leksikasida o‘ziga xos LSMGni tashkil qiladi.

Binokorlik leksikasida inson yashashi, faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan umumiy tushunchalarning atamasi bo‘lgan **bino** so‘zi etimologik jihatdan arabchadir, uni yaratuvchi, quruvchilar ma’nosidagi binokor termini esa arabcha-tojikchadir. O‘sha sohani anglatuvchi kasb nomi bo‘lgan **binokorlik** termini **arabcha-tojikcha-o‘zbekchadir**. Xuddi shunday, me’mor-arxitektor arabcha, bundan hosil bo‘lgan kasb oti nomi **me’morlik** arabcha-o‘zbekchadir. O‘sha sohaga nisbatan qo‘llanuvchi me’morchilik ham arabcha-o‘zbekchadir. (O‘zTIL. 1. 116, 462). Shevada bina so‘zi paydo bo‘lib, yuzaga kelib ma’nosida ham qo‘llanadi.

Uy, joy terminlari bilan bir sinonimik qatordagi **imorat** termini ham katta **uy**, **bino** ma’nosida arabcha. Imorat termini ba’zi nutqiy vaziyatlarda ko‘tarinki uslubda **imoratsoz** (arab-fors-tojik), **imoratchi** (arab- o‘zbek) tarzida ham uchraydi. (O‘zTIL. 1, 325)

Turar joylarning eng katta yozlik xonasi hisoblangan **ayvon** (O‘zTIL 1, 31) arabcha, uning oldi ochiq, bir tomoni dalaga qarab turgani **ayvoncha** To‘rtko‘l-Ellikqal’a shevasida arabcha-o‘zbekchadir.

Demak, fors-tojik o‘zlashmalari kabi binokorlikda ham arab tilidan o‘zlashgan terminlar ma’nolariga ko‘ra turli mavzu guruhni tashkil qiladi. Bu jihatdan **qalip** ad.orf. qolip.

Naqqosh naqsh, marmar: marmar, shaytan, sath kabi terminlar ham xarakterlidir.

Qalip (arabcha) – Mahsulotga shakl beradigan asbob: g'isht qolipi: **qalipchi** (arabcha-o'zbekcha)-qolip yasovchi usta (O'.TIL. 11, 594), **naqsh** (arabcha)-quyib yoki bo'yoq bilan ishlangan bezak (O'zTIL. 1, 499) kabilar.

Terminshunos olimlarimizdan prof. Sobirjon Ibrohimov fan, texnika terminlariga, shuningdek, tojikcha terminlarga nisbatan arabcha so'z terminlarining ozchilikni tashkil qilishini ta'kidlagan edi.²² To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidan to'plangan faktik materiallar ham shundan guvohlik beradi.

3.4.3. BINOKORLIKKA OID RUS TILI ORQALI O'ZLASHGAN LSG

Hozirgi o'zbek adabiy tili va xalq shevalari leksikasida ruscha-baynalminal (internatsional) so'zlarning salmoqli qatlami mavjud. Bu o'zbek tilining rus tili bilan o'zaro aloqa-munosabati va ta'siri tufayli yuzaga keldi. Prof. A.K.Borovkovning ta'kidlashicha, 1905 yilgi rus revolyutsiyasidan keyinroq rus so'zlari, rus tili orqali evropacha so'zlar kirib kela boshlagan²³. Lug'atimizning boshqa qatlamlaridagi kabi kasb-hunar leksikasida, jumladan, binokorlik leksikasida ham ruscha-o'zlashmalar hisobiga katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek adabiy tili, uning shevalari binokorlik leksikasi ana shunday terminlari hisobiga yanada rivojlandi, takomillashdi, boyidi.

Bu holatni To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidagi binokorlikka oid **semont** tsement, **biyton** beton, **jiliyzabiyton** jelezabeton, **pi'rarap** prarab, **pondamit** fundament, pi:laram, i'strapila, peka, shu'ru'p, plindoz ad.orf. rus. prorab-qurilish ishlari rahbari, proizvoditel, rabot so'zlarining qisqarishidan yasalgan (OJ.SRYA. 503), plita, kraska, fundament, pilorama, strapilo (OJSRYA.633) kabi yuzlab so'zlar misolida ko'rish mumkin. Biz bu o'rinda ba'zi xarakterli ruscha o'zlashma terminlarining izohini berish bilan kifoyalanamiz. Chunki ularning aksariyati ishning lug'at qismida berish niyatidamiz

Binokorlikdagi ruscha o'zlashmalar, terminlar mavzu jihatdan g'oyatda rang-barangdir:

²² Ibrohimov S. Ko'rsatilgan asar, 136-bet.

²³ Borovkov A.K. O'zbek tilining leksikasidagi o'zgarishlar va yangi alfavit. SSSR fanlari akademiyasi, O'zbekiston filyalining axboroti. 1940 2-son.39-bet.

1. Eng muhim qurol-asbob, material nomlarini bildiruvchi terminlarga **kubal** kuval, **masterok**, **tørkə**, **bi:ton**, **shipr** kabi qator terminlar kiradi. Bular o'rganilayotgan shevada turli xil fonetik o'zgarishlarga uchragan holda uchraydi.. Uyni shiferlash jarayonida qo'llaniladigan material nomlaridan istrapila, rekalaridan tashqari kanyok termini ham ruscha o'zlashmadir.

Bu aslida rus xalqning ba'zi udumlariga binoan **tom shifr** bilan yopilib bo'lgach, uying tepasiga o'rnatiladigan otning kallasimon bezak nomini

bildiradi, qiyoslang: rus. konyok 2-derevyannoe reznoe ukrashenie na krishe izbi, inogda v vide konskoy golovo' (OJSRYA. 235)

O'rganilayotgan shevalarda bu termin shiferlar eng oxiri uchlari bir-biriga tekkan joylarini yomg'ir o'tmasin, chakka tomchi tushmasiligi uchun qo'yilgan uzun tunukaga nisbatan ishlatiladi: atarqa shiprdi'н bashi'na bir xatar kanyok qaqi'ladi'.

Xonaga pol qoqish jarayonida taxtalar bir-biriga jipslashib tursishi uchun ishlatiladigan ikki uchi mixsimon asbob duradgorlar nutqida **iskopa-iskoba** termini mavjud. Uruscha qandaydir qismlarni birlashtirishda ishlatiladigan bukuk temir deyilgan: rus skoba.

kernis:kərniz karniz-grek tilidan rus tili orqali o'zlashgan termin, yog'och, metall, ganch kabi materiallardan tayyorlangan predmet nomlariga nisbatan ishlatiladi. Uni o'zbek binokorligida uch xil ma'noda tushiniladi.

1. Bino devorining ustki qismida yoki eshik, deraza ustida gorizontol holdagi chiqish qism.

2. Ship, bo'g'ot ostidagi taxta, yog'och yoki ganchdan qilingan gorizontol bezak.

3. Deraza yoki eshik tepasida parda osish uchun yog'och yoki metaldan qilingan dor (O'zTIL. 1, 369)

Ma'lum bo'ldiki, bu termin o'zbek binokorligida ma'no kengayishiga uchrab, eslatilgan ikkinchi ma'noni ham kasb etgan.

2. Tubandagi terminlar binokorlik leksikasida quruvchilikdagi kasb-hunar egasi nomlarini bildiradi: biytonchi:betonchik, ishkaturchik (rus. betonshik, kamenshik, molyar,shtukatur.(OJ.SRYA,41,214,273,244,735)).

SHunisi xarakterliki, asil ma'nada ohak, shuvoq, mutaxassisi, ustasi ma'nosini ifodalovchi shtukatur termini shevaning fanetik qonuniyatlariga bo'ysundirilgan holda shaxs nomini emas, shuvoqning bir turini ifodalash funktsiyasini ham kasb etgan. Shaxs, mutaxassis nomi o'rnida asliga zid, lekin shevaga xos bo'lgan shtukaturchik termini paydo bo'lgan. Bu mavzu guruhga master:mastir, prarap, injiner, nachalnik kabilar ham kasb egasi, amal ma'nolarini bildiradi. Adamboy yaqi'nda pi'rarap ædi, indi næchalnik bopti'.

Xullas ruscha, terminlar mavzu guruhlari anchagina. Ular davr talablari bilan binokorlar leksikonida o'z qatlam terminlari kabi faol ishlatilmoqda. Buni **veranda** (ravon, tærsayvon, ayvon), teraska, balkon, podval, kattej kabi binokorlikning turli sohalariga oid qator terminlar ko'rsatib turibdi.

Darhaqiqat, «Leksik olinmalar boshqa tillardan so'z olish». Ikki tillilik sharoitida, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, tillarni va xalqlarni yaqinlashtirish vositalaridan biriga aylanadi²⁴

Binokorlik terminlarining leksik- semantik xususiyatlari yuzasidan xulosa sifatidagi qaydlar.

1. Xalqning jonli so'zlashuv tilida mavjud bo'lib, lug'atlarda qayd qilinmagan **æpænæk, atlama, so'ri, pesh, jilbirchi', peshman** kabi qator terminlar xalqimizning uzoq tarixi etnografiyasidan xabar beradi.

2. Shevada mavjud **kætargi, qapi', i'lachiq, kæppæ:kæpæ, tuynuk** kabi terminlarning qadimgi yozma yodgorliklarga oid lug'atlarda ham hozirgi fonnetik holatidan boshqacharoq shaklda uchrashi inson hayoti uchun zarur faktorlardan biri hisoblangan binokorlik kasbi o'troq hayot boshlanishi bilan bog'liq ekanligining lingvistik dalili hisoblanadi.

3. Binokorlik, duradgorlik, temirchilik, ganchkorlik, bo'yoqchilik, naqqoshlik kabi sohalar leksikasini ham qamrab oladi. Semantik jihatdan material qurol-

²⁴ G`ulamov A. So`z yasalihi. O`zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. Toshkent «Fan», 1975,7-b.

aslaha, kasb egalari binoning tarkibiy qismlari, bezak nomlari va ularga oid mehnat jarayoni nomlarini bildiradi.

4. Binokorlikda o'z qatlamga oid terminlar bilan bir qatorda-arab, fors-tojik, mo'g'ul, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan terminlar ham faol ishlatiladi. Chunki har qaysi jonli tilda uning yangi so'zlar bilan boyish jarayoni hech qachon to'xtamaydi, ularning bir qismi so'z yasash yo'li bilan yuzaga keltiriladi²⁵.

²⁵ Kubryakova Ya.S. Chto takoe slovoobrazovaniya. «Nauka», M.,1965 Str.18.

UMUMIY XULOSALAR

To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi vakillarining asosiy aholisi o'zbeklardan tarkib topgan. Ular o'zbeklarning xo'jajabr, o'n olti, kɵkkɵz, sarang kabi urug'larga mansub. Oqboqli nomli Dehqon fermer xo'jaligi (DFX)da tabaqchi, maqsim, tuyachi, do'sanboy, tojik kabi urug' vakillari yashab keladi. Shuningdek, Yonboshqal'a nomli DFX hududida o'zbek va qozoq xalqlari, Miskin, Sariqqamish, Obojon Durdiev, Turkmanko'l, Qozoqlik (DFX) da turkman, qoraqalpoq va o'zbeklar, Qoraxonboy, Sho'rxon (DFX)da o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlari vakillari aralash yashaydilar.

O'zbek tili To'rtko'l-Ellikqal'a shevasi aholisining nutqi o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga mansub bo'lib, shevada ishlatiladigan so'zlarning deyarlik ko'p qismi qarindosh tillar, ya'ni qoraqalpoq, qozoq va turkman tillari bilan mushtarak so'zlardir. Chunki sheva vakillari o'z kundalik hayotida qoraqalpoq, qozoq, turkmanlar bilan bir necha asrlardan beri birga yashab keladilar

Umumturkiy leksik qatlamni tashkil etgan so'zlarning ba'zilar o'zbek adabiy tilidan ham ma'no, ham shakl nuqtai nazardan farq qilishi mumkin. Ayrim so'z va terminlar esa To'rtko'l-Ellikqal'a shevasidagina keng ishlatiladi.

So'z o'zlashtirish bir tildan ikkinchi tilga so'z qabul qilish yo'li bilan sodir bo'ladi. Bunday so'zlar bir tomondan ma'lum tilning so'zlashuv tilidan olinsa, ikkinchi tomondan bevosita shu tilning o'zidan to'g'ridan - to'g'ri o'zlashtiriladi.

Chetdan o'zlashtirilgan so'zlar barcha xalq tili yoki shevalarida bir xil bo'lavermaydi. Biror shahar yoki qishloqda xalq xo'jaligining qaysi bir sohasi tormoq otgan bo'lsa, o'sha sohada chetdan o'zlashtirilgan so'zlar salmoqli o'rin tutadi.

Ayniqsa, Mustaqillik sharofati bilan Mustaqil davlatlar hamkorligi xalqlari tillaridan, shuningdek, evropa, Osiyo tillaridan ko'plab so'z va atamalar kirib shevalar leksikasini boyitdi. Bozor iqtisodiyoti savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim, ishlab chiqarishning barcha sohalariga, meditsinaga oid so'zlar hisobiga boyib bormoqda.

O'zbek xalqining tojik xalqi bilan aloqasi qadimdan asrlar bo'yi davom etib keldi. Bunga bir necha tarixiy asoslar va sabablar bor:

1. Arablar istilosigacha bo'lgan qadimgi tojik tili yoki so'g'diy tiliga yaqin bo'lgan til bilan munosabat davri.

2. Arablar istilosidan keyingi tojik va o'zbek tillari munosabati davri.

Bu ikki xalqning turmush sharoiti bir xil va ular umumiy territoriyaga ega bo'lganligi sababli hayotning turli sohalarida hamkorlik qilib keladilar. Bu hamkorlik tojik va o'zbek xalqlarining tillarida fonetika, lug'at tarkibi va grammatik qurilishida o'z aksini topdi. Masalab, chëpkëri termini fors-tojik tilida cho'b va kor morfemalarining birikuvidan tuzilgan bo'lib, cho'b-yog'och, kor-hunar, kasb ma'nolarini anglatadi.

Demak, **cho'bkori** –sinchli imorat quruvchi usta, **cho'bkori** – yog'ochdan qilingan imorat demakdir. (FZT.1. 551, II.561)

Binokorlikdagi ruscha o'zlashmalar, terminlar mavzu jihatdan g'oyatda rang-barangdir.

Binokorlik terminlarining leksik- semantik xususiyatlari yuzasidan xulosa sifatidagi qaydlar:

1. Xalqning jonli so'zlashuv tilida mavjud bo'lib, lug'atlarda qayd qilinmagan **apənək, atlama, so'ri, pesh, jilbirchi', peshman** kabi qator terminlar xalqimizning uzoq tarixi etnografiyasidan xabar beradi.

2. Shevada mavjud **kətargi, qapi', i'lachiq, kəppə:kəpə, tuynuk** kabi terminlarning qadimgi yozma yodgorliklarga oid lug'atlarda ham hozirgi fonetik holatidan boshqacharoq shaklda uchrashi inson hayoti uchun zarur faktorlardan biri hisoblangan binokorlik kasbi o'troq hayot boshlanishi bilan bog'liq ekanligining lingvistik dalili hisoblanadi.

3. Binokorlik, duradgorlik, temirchilik, ganchkorlik, bo'yoqchilik, naqqoshlik kabi sohalar leksikasini ham qamrab oladi.

4. Binokorlikda o'z qatlamga oid terminlar bilan bir qatorda-arab, fors-tojik, mo'g'ul, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan terminlar ham faol ishlatiladi.

5. Sheva leksikasida arab, fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlar ham salmoqli o'rin tutadi:.

7. Fors-tojik tilidan o'zlashgan so'lar ko'proq aholining dehqonchilik, kasb-hunar, chorvachilik, turar joy, uy-ro'zg'or asboblari, oziq-ovqat nomlari bilan bog'lqdir.

8. Arab tilidan kirib kelgan so'zlar ko'proq maorif, madaniyat, san'at va diniy e'tiqodi bilan bog'liq.

9. Biz ishimizda chetdan o'zlashgan so'zlarni semantik jihatdan bir necha guruhga ajratib o'rgandik. Ularni xarakterli misolar orqali tahlil qilib berdik. 10. Shunisi xarakterliki, chetdan o'zlashgan so'zlarning deyarlik barchasi shevaning fonetik tizimi qonuniyatiga bo'ysindirilib talaffuz qilinadi.

11. Ayrim chetdan kirib kelgan so'zlarga asl turkiy affikslarning qo'shilib kelishi xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. –Toshkent: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir, T., «O'zbekiston», 2000.
3. Barkamol avlod orzusi («Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar), T., 1998.
4. Abdullaev F.O'zbek tilining Xorazm shevalari, 1.Toshkent: Fan. 1961.
5. Arazkuliev.S. Garakalpakstan ASSRnin Dortgul rayonidaqi tyrkman gepleshikleri. Ashgabat. 1961. 189-190-b.
6. Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy tarixiy asoslari. O'zbek tili leksikologiyasi «Fan», T., 1981.
7. Borovkov. A.K. Tadjikskogo - uzbekskoe dvuyazichie i voprosi vzaimovliyanii tadjikskogo i uzbekskogo yazikov. «Uchenie zapiski instituta vostokovedeniya». Tashkent 1952. str. 188.
8. Borovkov A.K. O'zbek tilining leksikasidagi o'zgarishlar va yangi alfavit. SSSR fanlari akademiyasi, O'zbekiston filyalining axboroti. 1940 2-son.39-bet.
9. Bo'ronov M. O'zbek tilining kasb-hunar leksikasi.-Nukus:NGU 1978.
10. Desheriev Yu.D. Sotsialnaya lingivistika. Moskva, 1977, str 8.
- 11.Dospanov O. Qoraqalpoq tilining qubla dialekti-Nekis:Bilim.1978.
12. Ibragimova Z.Yu. Qoraqalpog'iston O'zbek shevalari leksikasining lingvogeografik tadqiqi\\ Aitoref.filol.fan.nomzodi.-Toshkent. 2009.23 b.
- 13.Ibrohimov S. Navoiy asarlri lug'ati. Toshkent, 1972
- 14.Ibragimov Yu.M. Luksika uzbekskix govorov Priaralbya.- Nukus:Bilim.1996.
15. A.Ishaev. «Mang'it shevasida rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar». Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 3-kitob. Toshkent.1961. 364-bet.
- 16.Kubryakova Ya.S. Chto takoe slovoobrazovaniya. «Nauka», M.,1965 Str.18.

- 17.S.Qurbanov tilidan yozib olindi.
18. Madraximov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasining leksikasi.-Toshkent:Fan.1973.
- 19.Toshkent oblast O'zbek shevalari.-Toshkent: Fan.1967.
- 20.Tursunov T. Me'morlik terminlarining leksik-grammatik tadqiqi. -Toshkent: Fan . 1987.
21. Sh.Shoabdurahmonov «O'zbek adabiy tili va O'zbek xalq shevalari» «Fan», T., 1962, 325-b.
22. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent 1982.
23. O'zbekiston SSR tarixi. Toshkent 1967. 1-tom.
24. O'zbek tili. T. 1983.
- 25.O'zbek tilining izohli lug'ati. T. 1,11.-Moskva.1981.
26. O'zbek shevalari leksikasi.-Toshkent:Fan.1966.,1992.
- 27.O'rozovE.Yu.Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. Toshkent. 1978. 68-b.
- 28.G'ulamov A. So'z yasalishi. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. Toshkent «Fan», 1975.
- 29.Qodirov P. «Yulduzli tunlar».-Toshkent: G'.G'ulom.1978.
- 30.Qoshg'ariy Maxmud. «Devoni lugatit turk». -Toshkent: Fan. 1960-1963.
- 31.Qoshg'ariy Maxmud «Devoni lug'atit turk», Indeks-Toshkent: Fan.1968.

MUNDARIJA:**KIRISH****I BOB**

1. Umumturkiy leksik qatlamga oid LMG
 - 1.1. Qoraqalpoq tili bilan mushtarak LSG
 - 1.2. Qozoq tili bilan mushtarak LSG
 - 1.3. Turkman tili bilan mushtarak LSG
 - 1.4. To'rtko'l-Ellikqal'a shevasida hosil bo'lgan LSG

II BOB

Chet tillardan o'zlashtirilgan LMG

- 2.1. Arab tilidan o'zlashgan LSG
- 2.2. Fors-tojik tilidan o'zlashgan LSG
- 2.3. Rus tilidan o'zlashgan LSG

III BOB

Turarjoy nomlarini ifodalovchi LMG

- 3.1. Turarjoy qismlarini ifodalovchi LSG
- 3.2. Binokorlik leksikasida qurol nomlarini ifodalovchi LSG
- 3.3. Kasb egalari, mehnat faoliyat bilan bog'liq LSG
- 3.4. Binokorlik leksikasidagi o'zlashgan LMG
 - 3.4.1. Binokorlik leksikasidagi fors-tojikcha LSG
 - 3.4.2. Binokorlikdagi arabcha o'zlashma LSG
 - 3.4.3. Binokorlikka oid rus tili orqali o'zlashgan LSG

U M U M I Y X U L O S A L A R**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**